

O'zbekiston Respublikasi
Ta'limdi rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi

TA'LIM HAYOTGA TAYYORGARLIK EMAS,
TA'LIM — BU HAYOTNING O'ZI



Toshkent-2024

UO'K

KBK

T

Mazkur metodik qo'llanma o'qituvchilar, metodistlar va tadqiqotchilar, ta'lim ishtirokchilari uchun foydali bo'ladigan tavsiyalar, amaliy yechimlar hamda o'quv tarbiya jarayoni bilan bog'liq bo'lgan savollarga javob topish imkonini beruvchi tahlillarni o'z ichiga olgan. Shuningdek, amaliyatda samara bergan tajribalar, yondashuvlar, usullar va maslahatlar keltirilgan bo'lib, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, maktab va darslarda o'zini baxtli hamda xavfsiz his qilishiga ko'maklashish bo'yicha aniq tavsiyalar yoritilgan.

Mualliflar:

Pardayeva Mehriniso Doniyorovna, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi boshqarma boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Xojayeva Gulnoz Musinxonovna, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi yetakchi mutaxassisi

Taqrizchilar:

Akramova Shaxnoza Abrorovna, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig'inining o'rinnbosari, podpolkovnik, pedagogika fanlari doktori, professor

Sangirova Zamira Bazarbayevna, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bosh mutaxassisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

O'zbekiston Respublikasi Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi (2024-yil 11-oktabr, 1-son yig'ilish bayonnomasi)

ISBN

© Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik markazi

MUNDARIJA

Kirish	4
1-bob. Kelajak ta'limi: tamoyillar va trendlar	6
1.1. 21-asrda ta'lim tendensiylari va chaqiriqlar	6
1.2. Zamonaviy o'qituvchi funksiyalari	13
1.3. Maqsad o'qitishmi yoki o'qishga o'rgatish?	15
2-bob. Sifatli ta'lim- barqaror rivojlanish	18
2.1. Ta'lim hayotga tayyorgarlik emas, ta'lim – bu hayotning o'zi	18
2.2. Ta'limda individual ehtiyoj va rivojlanish trayektoriyasi	23
2.3. Natija kerakmi, darsni motivatsiya berishdan boshlang	27
2.4. Nima eksak, shuni o'ramiz: ijtimoiy-emotsional munosabatlar	29
3-bob. Yaxshi metodika – yaxshi natija	32
3.1. Dars o'tish usulini qanday tanlash kerak?	32
3.2. Zakovatga ko'ra o'rganishni osonlashtirish tavsiyalari	41
3.3. Baholash. Kim/nimani va qanday baholaymiz?	46
4-bob. Tajribaga asoslangan pedagogik amaliyot- qadriyat	48
4.1. Sinfni boshqarish texnikasi	48
4.2. Bolaga ishonch bildiring	51
4.3. O'quvchini qanday qilib kitob o'qishga undash mumkin?	53
4.4. Pedagogik vaziyatlar va ularning yechimi	60
5-bob. O'z-o'zini rivojlantirish – muvaffaqiyatli bo'lish	67
5.1. O'z-o'zini rivojlantirish va baholash	67
5.2. O'qituvchilar uchun nutq texnikasi	70
5.3. Raqamli avlodni qanday o'qitamiz?	72
5.4. O'rganing, qo'llang: metodlar, usullar, o'yinlar va texnologiyalar	75
6. Adabiyotlar va manbalar	92

KIRISH

Bugun o'quvchi yoki talaba bo'lgan insonlar bir kun kelib o'z farzandlari yoki uka-singillari uchun, ish joyida qo'l ostidagi xodimlar uchun, ta'lim muassasasida kelajak avlodlar uchun o'qituvchi va tarbiyachi bo'lib qoladi. Aytish mumkinki, har birimiz u yoki bu darajada pedagogik funksionallikni boshdan o'tkazamiz.

Pedagogik funksiya - o'qituvchiga belgilangan kasbiy bilim va ko'nikmalarni qo'llash yo'nalishi bo'lib, pedagogik sa'y-harakatlarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va jamiyatda o'z o'rnnini topish hamda farovonligini ta'minlashga qodir shaxs sifatida shakllantirishdir.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'rganish, ta'lim, rivojlanish va shakllantirish jarayonlarini boshqarishdir. Bugungi kunda O'qituvchi o'qitishga emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etishga chaqiriladi. Va u, bu asosiy funksiyani qanchalik aniq tushunsa, o'quvchilariga shunchalik mustaqillik, tashabbus va erkinlik beradi. O'z ishining haqiqiy ustasi – o'z funksiyalarini yuksak mahorat bilan bajaradi, ya'ni o'quv va ta'lim tarbiya jarayonida, go'yo "sahna ortida" tursa ham, o'quvchilar tomonidan erkin amalga oshiriladigan tanlov chegaralaridan tashqarida qolibsa-da, aslida hammasi u tomonidan boshqariladi.

So'nggi yillarda har bir mamlakat o'z ta'limi sifatini, ta'lim oluvchilar natijalarini milliy baholash bilan bir qatorda xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish orqali ham chuqr tahlil qilishga intilmoqda. O'z navbatida xalqaro baholash dasturlari tahlillarining ishonchliligi tufayli ishtirokchilar doirasi kengayib bormoqda. Masalan, PIRLS-2001 da 35 ta, PISA-2000 da 32 ta davlat ishtirok etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib ularning soni 80 dan oshdi. So'nggi yillarda ushbu tadqiqotlarda O'zbekiston ham ishtirok eta boshladi. Olingan natijalar va tahlillardan ta'lim tizimidagi ayrim jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarurati borligiga amin bo'linmoqda. Tahlillarga

ko'ra, o'quvchilar natijalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadigan omillardan biri — o'qituvchi kasbiy kompetentligi e'tirof etilmoqda. Haqiqatdan ham, o'quvchilar natijalari ularga ta'lif berayotgan o'qituvchilar natijalariga juda bog'liq ko'rsatkich(mi), bu -ta'kidmi yoki taxmin? O'qituvchi va o'quv jarayonining xususiyatlari (ta'lif, toifa, tajriba, ish yuki, o'qitish amaliyoti, davomiyligi bu sinf va boshqalar bilan ishlash) o'quvchilar natijalariga ta'sir qiladimi?

Mazkur metodik qo'llanmada biz o'qituvchilar va metodistlar uchun foydali bo'ladigan tavsiyalar, amaliy yechimlar hamda yuqoridagi kabi ko'plab savollarga javob topish imkonini beruvchi tahlillarni yoritdik. Amaliyotda samara bergen tajribalar, yondashuvlar, usullar va maslahatlarni keltirdik. Jumladan, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, mакtab va darslarda o'zini baxtli hamda xavfsiz his qilishiga ko'maklashish bo'yicha aniq tavsiyalar kiritildi.



1-BOB. KELAJAK TA'LIMI: TAMOYILLAR VA TRENDLAR

1.1. 21-asrda ta'lif tendensiyalari va chaqiriqlar

Ta'lif insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida, garchi unga chaqiriqlar, ta'lif olish uchun yaratilgan sharoitlar, imkoniyatlar va uning sifatiga ta'sir etuvchi omillar xilma-xil bo'lsa-da, o'z o'zagi/yadrosini saqlab qolmoqda. Inson hayoti sifatini yaxshilash uchun savodli bo'lish, farovonlik uchun mehnat bozori va jamiyatda o'zining munosib o'rnnini topish, boshqalar bilan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirisha olish uchun ta'lif olish zarurati asrlar davomida dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'z navbatida sifatli ta'lif olish uchun ta'lif xizmatlaridan samarali foydalanish ehtiyoji bilan birgalikda, uning mazmuni, turlari, shakllari, usullari, makon va subyektlariga nisbatan talablar takomillashib bormoqda.

Shuningdek, ta'lif turlari, bosqichlari o'rtaqidagi uzviylik, uzlusizlikni ta'minlash orqali barqaror rivojlanish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning eng asosiy talablaridan biridir. Va shu sababdan 2015-yilda 189 ta davlat, jumladan, O'zbekiston ham, Yer yuzida qashshoqlikka barham berish, atrof-muhit va iqlimni himoya qilish hamda dunyodagi barcha kishilar tinchlik va ravnaq topishdan bahramand bo'lishini ta'minlash bo'yicha global miqyosda harakat qilish bo'yicha 17 ta maqsad qabul qildi¹.

Barqaror rivojlanish konsepsiysi uchta asosiy nuqtai-nazarni birlashtirish jarayonidan kelib chiqadi: **iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik**.

1 Seli v oblasti ustoychivogo razvitiya. <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/sustainable-development-goals/>



Bu cheklangan resurslardan optimal foydalanish va ekologik — tabiat, energiya va boshqa resurslarni tejovchi texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy-madaniy tizimlarning barqarorligini ta'minlash, tabiiy, biologik va jismoniy tabiatning yaxlitligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, 2030-yilga kelib, barcha talabalar barqaror rivojlanishga hissa qo'shish, jumladan, barqaror turmush tarzi, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlik va zo'ravonlikdan voz kechish madaniyatini targ'ib qilish, global fuqarolik va madaniy qadriyatlar ongiga oid ta'limga orqali barqaror rivojlanishga ko'maklashish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash².

2 <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/education/>

Hozirgi vaqtida ta'lim oluvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda 4K modeli samarali qo'llanmoqda, jumladan:



Muloqot (kommunikatsiya) ko'nikmasi

- ◆ muloqotdan cho'chimaslik, unga faol kirishish, savollar berish, berilgan savollarga asosli javob qaytarish;
- ◆ muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshiga moslashish;
- ◆ muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan o'rinali foydalanish;
- ◆ muloqot qoidalari, ma'nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;
- ◆ boshqalarning fikrini tinglay bilish;
- ◆ atrofdagilarda o'zining ijobiy obrazini shakllantira olish;
- ◆ o'z fikr va his-tuyg'ularini erkin va tushunarli tarzda ifodalash;
- ◆ muloqot mazmuniga mos tarzda ma'lumotlarni taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani o'rnatish;
- ◆ o'z fikr-mulohazalarini aniq va ishonarli dalillash;
- ◆ katta va kichik jamoada boshqalar bilan hamkorlikda ishslash.



Jamoaviy ishslash (kollaboratsiya) ko'nikmasi

- ◆ umumiy maqsadlarni o'z maqsadidek qabul qilish, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo'nalishini tanlash;
- ◆ ijtimoiy o'zaro ta'sir, ya'ni, umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaraga kirishish, o'z harakatlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish;

- ◆ belgilangan reja va g'oyalarni amalga oshirish uchun o'z jamoasini shakllantirish va yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- ◆ zimmasiga olgan majburiyatlarni talab darajasida bajarish;
- ◆ mustaqillik, avtonomiya va tashabbuskorlik.



Tanqidiy (kritik) fikrlash

- ◆ masalani chuqur va bat afsil o'rganish, uning mohiyati, xususiyatlari, holati va boshqa jihatlari bilan bog'liq omillarni tahlil qilish;
- ◆ eng muhim dalillarni ajrata olish va baholash;
- ◆ olinayotgan va berilayotgan ma'lumotlarning aniqligi, ishonchhliligi va sifatini baholash;
- ◆ o'z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy izchillikda bayon etish orqali tushuntirish;
- ◆ erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni to'g'ri shakllantirish, zarur ma'lumotlarni va ularning yetarliligini aniqlash, shu asosda mustaqil xulosalar chiqarish;
- ◆ o'z-o'zini boshqara olish, nazorat qilish, mulohaza yuritish va natijalarini yaxshilash;
- ◆ o'rganilayotgan masalaga turli nuqtayi nazardan yondashish;
- ◆ kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish;
- ◆ amaliy vaziyatda duch kelgan masalalarni hal qilish uchun vaziyatni modellashtirish va unga maqbul yechim topish;
- ◆ strategik fikrlash.



Kreativlik (ijodkorlik) ko'nikmasi

- ◆ tevarak-olamga qiziqish va u haqda ko'proq bilishga intilish;
- ◆ dunyo obyektlari o'rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o'z savollariga javob topish;
- ◆ tasavvur olamini kengaytirish, noan'anaviy va antiqa g'oyalarni o'ylab topish;
- ◆ maqsadga tez va samarali erishish uchun mavjud bir nechta usullardan maqbulini ajratib olish;
- ◆ g'oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, o'zgaruvchan va kuchli axborot oqimi sharoitida o'z faoliyatini tezda qayta tashkil etish.



Mantiqiy fikrlash va innovatsiya ko'nikmasi

- ◆ innovatsiyalar va yangi g'oyalarni ilgari surish;
- ◆ improvizatsiya qilish, maqsadga yetishning yanada oson, mos va maqbul usullarini izlash;
- ◆ o'z g'oyalarini amalga oshirish uchun mantiqiy va ijodiy tafakkur yuritish;
- ◆ maqsadga erishish uchun mas'uliyat, qat'iyat va iroda bilan harakat qilish.



Madaniyatlararo ko'nikmalar va global xabardorlik

- ◆ turli madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularning tarixiy va zamonaviy xususiyatlarini o'rganish;
- ◆ turli mamlakatlar, madaniyatlar va alohida shaxslarning jamiyat rivojiga qo'shgan hissasi bilan tanishish, ularning o'zaro bog'liqligi va ahamiyatini tushunish;

- ♦ odamlarga, ularning e'tiqodi, millati, kelib chiqishi, jinsi va moddiy imkoniyatidan qat'i nazar, hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- ♦ o'zgalarning tili, madaniy o'ziga xosligini to'g'ri qabul qilish va qo'llab-quvvatlash.



Farovonlik va barqaror rivojlanish ko'nikmasi

- ♦ ta'lim olishdan zavqlanish, yangi bilimlar olishga intilish qobiliyatini rivojlantirish;
- ♦ o'z bilimini xolis baholash va ta'lim olish maqsadlarini belgilash;
- ♦ barqaror turmush tarzi uchun foydali bo'lgan odatlarni bilib olish;
- ♦ tuyg'ularni tan olishni va ifodalashni o'rganish;
- ♦ o'z-o'zini ijobiy baholashni rag'batlantirish;
- ♦ gender tenglik, sog'lom raqobat muhitini qo'llab-quvvatlash.
- ♦ Mehnatga oid hayotiy malakalar va tadbirdorlik ko'nikmasi mehnatga ijobiy munosabatni qo'llab-quvvatlash;
- ♦ fanlarni o'rganish ham mehnatning bir turi ekanligi va buning uchun zarur bo'lgan intilishni rivojlantirish;
- ♦ ko'p qirrali ishslash usullarini qo'llash;
- ♦ ish jarayonlarini to'g'ri rejalashtirish va tashkil etish, ularni avtomatlashtirishga intilish.



Ekologik savodxonlik

- ♦ atrof-muhit, iqlim o'zgarishi, energiya, suv, tuproq, havo, oziq-ovqat mahsulotlari sifati va tarkibi, ekotizimga ta'sir etuvchi turli omillar hamda ularning oqibatlarini bilish va tushunish;
- ♦ aholi soni ortishi hamda texnologiyalar rivojlanishi tabiatga ta'sir ko'rsatishini va mavjud resurslar ko'proq sarflanishiga sabab bo'lishi bilish va tushunish;

- ◆ ekologik muammolarni o'rganish va tahlil qilish, aniq xulosalar chiqarish, samarali qarorlar qabul qilish;
- ◆ ekologik muammolarni yechishda individual va jamoaviy harakatlanish (masalan, global aksiyalarda ishtirok etish, ekologik rivojlanishga ijobjiy ta'sir etuvchi yechimlarni ishlab chiqish).



Kompyuter va AKT savodxonligi ko'nikmasi

- ◆ kompyuter va AKTdan foydalanish orqali jarayonlarni avtomatlashtirish va tezlashtirish, amaliy vaziyatlarni modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- ◆ axborotni izlash va qo'llashda AKTdan maqsadli foydalanish;
- ◆ axborotni olish, foydalanish va uzatishda matn, tinglash, lingvistik, fazoviy va vizual resurslardan unumli foydalanish;
- ◆ zamonaviy texnologiyalardan izlanish va ijodiy jarayonning bir qismi sifatida foydalanish;
- ◆ turli shakllardagi axborotni tushunish, og'zaki va yozma tarzda izohlash;
- ◆ raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini bilish, ularning zamonaviy dunyodagi ahamiyatini to'g'ri baholay olish;
- ◆ global tarmoqdagi xavfsizlik qoidalari va odob-axloq qoidalalarini bilish hamda ularga amal qilish;



Tizimli fikrlash va loyihalash ko'nikmasi

- ◆ tahlil qilish, asosli qarorlar qabul qilish, xavf va imkoniyatlarni baholash;
- ◆ atrofimda sodir bo'layotgan voqealarni to'liqroq va aniqroq idrok etish;
- ◆ sodir bo'layotgan voqealar va ularning o'zaro bog'lanishini (tasvirlari) xolis nuqtayi nazardan baholash va ularga adekvat

- ◆ javob berish;
- ◆ maqsadga yanada muvaffaqiyatli erishish istiqbollini ko'rish;
- ◆ empatiya: o'zini boshqa odamning o'rniga qo'yib ko'rish, uning holatini va his-tuyg'ularini tushunish;
- ◆ fikrlash kengligi: muammoni butunligicha va barcha tafsilotlari bilan qamrab olgan holda tahlil qilish;
- ◆ eksperiment: sinab ko'rish, xato qilsa, qayta urinib ko'rish.

Mazkur ko'nikmalarni sifatli shakllantirish, ta'limga maqsadlariga erishish yo'llardan biri pedagogik ta'limga rivojlantirish, o'qituvchilarga ishonch bildirish va mahoratini yuksaltirishga ko'maklashish zarur.

1.2. Zamonaviy o'qituvchi funksiyalari

Pedagogik funksiya – o'qituvchiga belgilangan kasbiy bilim va ko'nikmalarni qo'llash yo'nalishi bo'lib, pedagogik sa'y-harakatlarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash, va shaxsini rivojlantirish.

Quyidagi **funksiyalar** ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etish bilan ham bog'liqdir:

Maqsadni belgilash funksiyasi – o'qituvchi va uning o'quvchilarining umumiy sa'y-harakatlarini ta'limga tarbiya natijasiga yo'naltiradi.

Diagnostika funksiyasi – o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv fanlarini o'zlashtirish tezligi va xatti-harakatlari to'g'risidagi bilimlar asosida o'quv jarayonini boshqarishni o'z ichiga oladi.

Prognostik funksiya – o'qituvchining mavjud o'ziga xos sharoitlarda o'z faoliyati natijalarini oldindan ko'ra bilish qobiliyatida ifodalanadi va shu asosda o'z faoliyati strategiyasini tuzadi, kerakli miqdor va sifat darajasini olish imkoniyatlarini baholaydi.

O'qituvchining proyektiv (loyihaviy) funksiyasi – kelgusi faoliyat modelini qurish, belgilangan sharoitda va belgilangan vaqtida maqsadga erishishga imkon beradigan usul hamda vositalarni tanlash, maqsadga

erishishning aniq bosqichlarini aniqlash, olingan natijalarni baholashning turlari, shakllari uchun aniq vazifalarni shakllantirish va boshqalar.

Diagnostika, prognozlash va loyihalash o'quv faoliyati rejasini ishlab chiqish uchun asos bo'lib, uni tayyorlash pedagogik jarayonning tayyorgarlik bosqichini yakunlaydi.

Diagnostika, prognozlash, loyihalash va rejalshtirish – o'qituvchilar tomonidan ta'lif faoliyatining har bir loyihasi (sikli) ning tayyorgarlik bosqichida amalga oshiriladigan pedagogik funksiyalar hisoblanadi.

Maqsadni amalga oshirishning keyingi bosqichida o'qituvchi axborot, tashkiliy, baholash, nazorat va tuzatish (korreksiyalash) funksiyalarini bajaradi.



O'qituvchining tashkiliy funksiyasi asosan o'quvchilarni mo'ljallangan ishga jalb qilish, ular bilan ko'zlangan maqsadga erishishda hamkorlik qilish bilan bog'liq.

Axborot funksiyasi o'quv ma'lumotlarini tanlash, shuningdek, ta'lif va uning aloqalarini o'rnatishdan iborat. O'qituvchi nafaqat o'quvchilar uchun

ma'lumot manbai, balki u o'quv adabiyotlari dengizida navigator ham. O'quvchilarning o'zlari nimani va qanday qilib o'qishlari, o'rganishlari ta'lim aloqasi qanday tuzilganiga bog'liq.

Nazorat, baholash va tuzatish funksiyalari ba'zan birlashtirilib, o'qituvchi tomonidan samarali rag'batlantirish vositalarini yaratishdan iborat bo'lib, buning natijasida ta'lim va tarbiya jarayoni rivojlanadi hamda unda kutilgan o'zgarishlar/dinamika sodir bo'ladi.

Har qanday pedagogik loyihaning yakuniy bosqichida o'qituvchi analitik funksiyasini bajaradi, uning asosiy mazmuni o'z ta'lim-tarbiyaviy ishining samaradorligini tahlil qilish, u rejalashtirilganidan yuqori yoki pastmi, qayerda va nima uchun muammolar paydo bo'lganligi, bundan kelajakda qanday xatolardan qochish kerak degan, savollarga javob beradi.

1.3. Maqsad o'qitishmi yoki o'qishga o'rnatish?

“Qayerga borishingni bilmasdan yo'lga chiqsang, o'zing kutmagan yerdan chiqib qolasan”.

O'rganish maqsadiga mos keluvchi ushbu ibora darsning aniq maqsadga yo'naltirish muhimligini ko'rsatib beradi. Agar dars maqsadlari belgilanmay o'tkazilsa, darsning mazmuni va didaktik tuzilishi u yoki bu darajada tasodifga bog'lanib qoladi. Bu esa o'z navbatida aniq natijaga olib kelmasligi mumkin.

O'rganish/o'rnatish maqsadlariga erishish uchun dars turi (nazariy, amaliy, mustahkamlash, nazorat darsi)ni shakllantirish uchun oldindan mos keladigan maqsadlar ishlab chiqilishi muhim.

O'rganish maqsadlari shu orqali jarayonga qanday strategiyalar va resurslar safarbar etilishi lozimligini belgilaydi hamda bu strategiyalar va resurslar darslarning sifatli tashkil etilishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



O'RGANISH MAQSADLARI UCH SOHADA TUZILADI VA DARAJALARGA BO'LINADI:

KOGNITIV

(intellektual qobiliyatlar va ko'nikmalar sohasi):

- Ma'lumotlarni eslash;
- Jarayonni tushuntirish;
- Xatolarni tahlil qilish.

PSIXOMOTORIK

(iroda tomonidan boshqarilgan motorik ko'nikmalar sohasi):

- Material bilan ishslash;
- Jihozlarni qo'llash;
- Asbob-uskunalarini ishlata bilish.

AFFEKTIV

(o'zini tutish(xulq) va emotsiyal munosabatlar sohasi):

- Kasb-hunarga qiziqish;
- Mehnatga intilish;
- O'rganishga tayyorgarlik.

O'RGANISH QANDAY AMALGA OSHIRILADI?

O'rganish – mayda qadamlar bilan o'tkaziluvchi jarayon bo'lib, kognitiv o'quv nazariyasiga ko'ra har doim avvalgi bilimlarga asoslanadi.

Shuningdek, o'rganish – o'quvchilarni rag'batlantiriluvchi jarayon ham bo'lib, ular bu jarayonda o'zlarining yutuqlaridan xabardor bo'lishlari kerak.

**O'rganish
(o'zlashtirish)
sababi:**



- o'rganishga ishtiyoy;
- tashqi omillar;
- xatti-harakatlar reaksiyasi.

**O'rghanish
turlari:**




- taqlid (imitatsiya);
- odat;
- urinish;
- xato qilish;
- muvaffaqiyat;
- anglash;
- tushunib yetish.

**O'rghanishga
ta'sir etuvchi
omillar:**



- ortiqcha diqqat va charchoq;
- unutish vaqt;
- kun davomidagi o'zlashtirish darajasi;
- o'quv materiali qandayligi;
- o'xshash sohalarning o'quv materiali;
- o'zlashtirish paytida sezgi a'zolarining ishlatalishi;
- bilimlarning abstraksiya darajasi (tasavvur darajasi va real tajriba).

**O'rghanish
pog'onalari:**



- Bilish (dalillar, tushunchalar va tamoyillarni bilish);
- Tushunish (tamoyillar, qoidalarni tushunish va anglash);
- Qo'llash (qoidalalar, tushunchalar va qonunlarni qo'llash);
- Tahlil qilish (tamoyil, usul va jarayonlarni tahlil qilish);
- Sintez (bilimlarni aloqadorlik guruhlarga kiritish);
- Baholash (mezon va qadriyatlarga ko'ra xulqni va bilimlarni baholash).

2-BOB. SIFATLI TA'LIM- BARQAROR RIVOJLANISH

2.1. Ta'lif hayotga tayyorgarlik emas, ta'lif — bu hayotning o'zi

Bugungi o'zgaruvchan dunyoda ijodkorlik va o'z taqdirini o'zi belgilashga qodir, rivojlangan mas'uliyat hissiga ega va yaratuvchanlikka intiluvchan kasbiy hamda ijtimoiy barqaror shaxsni shakllantirish ta'limning asosiy maqsad va vazifasiga aylandi. O'z navbatida ta'limda yangi yondashuvlar va zamonaviy paradigmalar paydo bo'lmoxda

Ta'lif paradigmasi — bu o'qituvchining turli xil ta'lif faoliyatidagi aniq harakatlarini belgilovchi nazariy va uslubiy mezonlar, uni harakat modeli sifatida boshqaradigan namunaviy shartlar.

Zamonaviy pedagogikada ta'limning to'rtta yetakchi paradigmasi mavjud: **kognitiv, shaxsga yo'naltirilgan, funksional, madaniy**.

Kognitiv paradigmaga muvofiq, ta'lif faqat tafakkurga asoslangan bilish bilan bog'liq jarayondir. Bunda ta'limning maqsadi — ijtimoiy tartibni aks ettiruvchi bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirish.

Shaxsiyatga yo'naltirilgan paradigma kognitiv paragma doirasida paydo bo'lgan yangi yondashuvlar: ijodiy muammolarni hal qilish, o'quvchilarining mustaqil faolligini oshirish, muammoli ta'lif, ixtisoslashtirilgan sinflar va boshqalar.

Funksional yondashuv shundan kelib chiqadiki, shaxs jamiyatning ba'zi funksiyalarining bir qismini o'z zimmasiga olishi kerak, bu bilimlarni egallash, undan ijodiy foydalanish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyati bilan bog'liq shaxsning ma'lum bir kompetensiyasini nazarda tutadi.

Madaniy paragma. Ta'lif — bu ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, ta'limni madaniyatning qadriyat obyekti sifatida belgilagan va u ta'limning madaniy muvofiqligi tamoyilidir.

Bu paradigmalarning umumiyl xususiyati mavjud bo'lib, ta'limning markazida bola shaxsi - shaxs turibdi va ta'limdagi yondashuvlar uning

rivojlanish ehtiyojlariga moslashish yo'lida rivojlanib kelmoqda. Bolalarning ehtiyojlari ularning ta'lif olish trayektoriyasini aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash va ta'lif resurslarini tanlashda juda muhim o'rinni tutadi.

Bolaning psixologik ehtiyoji

Shaxsiy kuch. Mazkur psixologik ehtiyojni quyidagi so'zlar bilan ifodalash mumkin:

“Meni borligimni bilishlarini va muhimi meni his qilishlarini, fikrimni tinglashlarini xohlayman. Menga tanlash huquqi berilishini istayman”.

Ota-onalar bolaga o'z fikri, istaklari va his-tuyg'ulariga ega kichkina odam sifatida munosabatda bo'lishlari kerak.



Bolaga tanlov berish, masalan:

- ◆ fikrini so'rash, undan maslahat olish (bu uning o'zini qadrli his qilishiga sabab bo'ladi va u uchun yoqimli);
- ◆ gapirayotganda gapini bo'lmaslik (qo'lidan xavfsiz bo'limgan narsalarni tortib olmaslik, so'rab olish) maqsadga muvofiq.

Ruhiy quvvat. Shunchaki yashash uchun bolani kuniga 4-marta, sog'lom bo'lishi uchun — 8-marta, o'sishi uchun — 12-martagacha quchish kerak.



Muvaffaqiyatli, baxtli va o'ziga ishongan farzandni tarbiyalash uchun har oqshom:

- ◆ Yotishdan oldin bolani o'pishni va quchoqlashni unutmang;
- ◆ Bu ishni avtomatik (hissiz) harakatga aylantirmang, televizorni o'chiring, telefon va boshqa narsalarni olib qo'ying;
- ◆ Farzandlaringizga yaqinlik lahzalarini bag'ishlang, asosiysi miqdor emas, muloqot sifati;
- ◆ Hikoya o'qib bering, suhabatlashing yoki shunchaki birga bo'ling.

Shunda bolani kunduzgi mashg'ulotlaridan tungi dam olishi oson o'tadi. Bundan tashqari, yotishdan oldin tinch va osoyishta muhitdagi suhbat bolalar va ota-onalar o'rtaсидаги ishonchni mustahkamlaydi.



O'qituvchi tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar

- "O'qituvchi har doim hammadan aqli bo'ladi va unga hech qachon, hech kim mutlaqo teng kela olmaydi!" prinsipida o'qitishga yondashish;
- O'quvchining har bir yutug'ini oddiy bir narsa deb hisoblab, unga ahamiyat bermaslik.
- O'quvchini kamsitish orqali uning ruhini tushirish.
- O'quvchi qoniqarli darajada javob bermasa, uni qaltis qiyos bilan kamsitish.
- O'quvchi bir marta xato qilgan bo'lsa, uning xatosi oqibatlarini aytib uni doim qo'rqtish.
- O'quvchi o'zi hammasini bilishi shart deb, unga hech qachon yordam bermaslik.
- O'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini mutlaqo inobatga olmay, hammaga bir tekisda munosabatda bo'lish.
- O'quvchining takliflariga mutlaqo e'tibor bermaslik, fikriga past nazar bilan qarash.
- O'quvchidan o'tilmagan narsalarni bilishini talab qilish.
- Testlar natijasini, kimning nima ishi bor, deb, sir saqlash.



Aslida qanday bo'lishi kerak?

- Qiziquvchanlik, taajjublanish, shubhalanish, sergak turish, ajablantirish orqali o'quvchilarga yordam bering.
- Shunday maqsadlar va topshiriqlar beringki, ular o'quvchi uchun arzigelik va qiziqarli bo'lib tuyulsin.

- O'quvchiga muhlat berib, sifat va miqdor talabini qo'ying. **Talab qilish orqali rag'batlantiring.**
- Nazariy va amaliy darslarni kengroq mehnat doirasiga o'ting.
- O'quvchining ilk qadamlariga dalda bering.
- O'quvchiga iloji boricha ish-harakati uchun imkoniyatlarni kengaytiring.
- O'quvchining harakatlanishiga to'sqinlik qilmang va o'ta og'ir o'qitish bilan qiynamang.
- O'quv maqsadlarini aniq ifodalab bering, o'quvchilar o'zi ham tekshira olishi mumkin bo'lsin.
- O'quvchi mustaqil o'rganishiga imkon yarating, o'quvchi keyinchalik ham mustaqil ishlay olsin.
- Xatolar va yangilishlardan saboq olishga sharoit yarating va yaxshi niyatda tanqid qiling.
- O'quv yutuqlarini muvaffaqiyat hissiga aylantiring.
- O'quvchidan biror narsani noto'g'ri qilish qo'rquvini olib, uni o'rgangan narsalarini to'g'ri qo'llay olishiga ishontiring.
- O'zaro ishonch hissini vujudga keltiring, negaki qo'rquvdan hech vaqo chiqmaydi.

Chex gumanist-pedagogi, zamonaviy o'qitish jarayoni asoschisi Yan Amos Komenskiy o'quvchilarni darsga har kuni eshikdan sanab kiritar edi.

Biroq, bir qitmir o'quvchi har doim eshikdan emas, derazadan kiradi.

Komenskiy unga umuman e'tibor bermaydi. Kunlarning birida bola o'z harakatidan o'zi zerikib, sinfdoshlari qatori darsga eshikdan kirmoqchi bo'ladi.

Shunda Komenskiy "Sening kirish yo'ling bu yer emas"- deb unga derazani ko'rsatadi. Bola qilgan ishidan pushaymon bo'lib yig'lab yuboradi. U o'zining shu paytgacha noto'g'ri harakat qilganini anglab yetgan edi...

Talimda bolaning xatosini o'ziga anglatish uchun pedagog kuchli psixolog va sabrli boshqaruvchiga aylanishi muhim.

Quyida e'tiboringizga havola etiladigan metod, darsda tinch o'tirmaydigan bolalar uchun yoki ilk marotaba boshlanayotgan fan oldidan barcha sinflarda qo'llash uchun tavsiya etiladi.

“Meni eshititing” texnologiyasi

Kutilayotgan natija: darsga qiziqtirish, o'quvchi diqqatini jalb etish, o'quvchilar o'qituvchiga e'tiborsiz bo'lishlari, darsni tinglamasliklari oqibatini his qila oladilar.

O'qituvchi o'quvchilarni o'tirgan joylarida ikki guruhga bo'lib oladi: o'ng tomonda o'tirgan o'quvchilar va chap qanotda o'tirgan o'quvchilar. O'ng tomonda o'tirgan o'quvchilardan tashqariga chiqishlarini iltimos qiladi va nazoratni o'z qo'liga oladi.

Tashqariga o'ng qanot o'quvchilarini olib chiqib ketib, ularga “Hayotingizda ro'y bergan eng quvonchli voqeani partadoshingizga aytib bering”, deb topshiriq beradi.

Ichkarida qolgan chap qanot o'quvchilariga esa, “Sherigingiz kirib sizga gapirgan paytda unga umuman ahamiyat bermay, o'z ishingiz bilan mashg'ul bo'ling, o'zingizni mutlaqo bee'tibor tuting”, deb topshiriq beradi.

O'quvchilar sinf xonasiga olib kiriladi va hamma o'z roliga kirishadi. Kimdir chin yurakdan gapirishi va yonidagi partadoshi uni eshitmasligi o'quvchilarda jahl emotsiyasini keltirib chiqarishni boshlaganida mashg'ulot to'xtatiladi.

Bolalardan ularni kimdir tinglamasligida o'zlarini qanday his etganliklari so'raladi.

Yakunda o'qituvchi bolalarga qarata: “Men dars o'tayotgan paytimda menga bee'tibor bo'lishingiz, meni eshitmasligingiz mening ham shunday qalbimni og'ritadi”, deb aytadi.

2.2. Ta'limdi individual ehtiyoj, rivojlanish trayektoriyasi

“Kimdir buyuk bo'lib tug'iladi, kimdir buyuklikka erishadi, kimdir esa buyuk ishtiyoyqa duch keladi”.

Shekspir

Bola buyuk bo'lib tug'ilishi yoki bir yoki ikkita intellekt turi bilan siylangan bo'lishi mumkin. Intellektning boshqa turlarini bola astasekin egallab borishi yoki bu borada “buyuklikka” erishishi ham mumkin. Intellekt turlari borasida ularning ochilishini yoki ishtiyoyq paydo bo'lishini kutish kerak.

Yuguruvchilar

Bunday bola kimningdir velosiped uchayotganini ko'radi, keyin rulga o'tirib, yo'lga tushadi. Bunday o'rganish uslubini qo'llaydigan bolalar – yuguruvchilar deyiladi. Ular tez o'rganadilar, ammo oldilariga murakkab masala qo'yilsa, sohaga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotadilar. Ularning ta'lim olishi oson bo'lishining sababi, ularning mazkur sohada iste'dodi bo'ladi. Ota-onalar yuguruvchi bolalarga qiyinchilik tug'dirishi mumkin bo'lgan boshqa intellekt turlarini rivojlantirish uchun imkoniyat yaratishlari kerak.

Yuruvchilar

Bunday bolalar velosipedda uchishni o'rganishlari uchun haftalar kerak bo'ladi. Bu bolalar o'qituvchining o'rgatishiga yaxshi munosabatda bo'ladilar va har bir yangi urinishlari yaxshi natijalar olib keladi. Etimol, bu bola uchun avvaliga qo'shimcha yon g'ildiraklarni ham o'rnatishga to'g'ri kelar, ammo ikki hafta o'tgach, u bemalol asosiy ikki g'ildirakda harakatlana oladigan bo'ladi. Yurish usuli ota-onalarga yoqadi va bunday bolalarni ular muammosiz, iste'dodli farzand deb hisoblashadi. Bu bolalar, odatda, boshqalardan yordam olib ko'proq o'rganadilar va yaxshi natijalarga ega bo'ladilar. Ular bilan kelishish oson.

Sakrovchilar

Bu bolalar bilan ishslash biroz murakkab bo'lib, ota-onalar, odatda bunday farzand bilan qiynalishadi. Sakrovchilar velosipedda uchishni o'rganishlari uchun bir necha yil kerak bo'ladi. Ular o'qituvchining tushuntirishlarini eshitadilar, ammo oldinga siljimaydilar, hech qanday o'sishni ko'rsatmaydilar. Ular o'rganayotganlarini namoyish etmaydilar. Aslida barcha o'rganishlar bolaning miyasiga o'rashgan bo'lsa ham u rivojlanish belgilarini ko'rsatmaydi. Vaqt kelib bola birdan velosipedga o'tiradi va mohirlik bilan uchib ketadi. Tashqaridan u birdan sakrab maqsadga yetib olgандек ko'rinishi mumkin. Ko'pincha, bu bolalarga yetarli vaqt va e'tibor berilmagan bo'ladi. Agar ularga turtki berilmasa bunday bolalar o'zining ichki potensialini hech qachon ko'rsatmaydi.

O'quvchilar bilan tanishuvda qo'llaniladigan texnikalar

Muzyorar – muomaladagi to'siqlarni yengib o'tishga va o'zaro munosabatlardagi "muzni" yorishga qaratilgan mashqdir.

Bu, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi. Ikkinchidan, ishtirokchilarni o'zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

Treningga kirish jarayonida har bir ishtirokchi o'zini tanishtiradi.

Auditoriyadagilarning sonidan, kurs boshida umumiy kayfiyatidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, trener quyidagi tanishuv usullarini tanlashi mumkin:

Juftliklar besh daqiqa suhbatlashib, so'ngra har bir ishtirokchi o'zining sherigini tanishtiradi.

Doirada koptokcha bilan o'ynash – bunda qo'liga koptokcha tushgan har bir ishtirokchi o'z ismini hamda o'zi haqidagi ma'lumotni aytishi kerak bo'ladi.

O'xshash va o'xshash bo'lмаган xususiyatlarini topish

Bunda trening ishtirokchilari 5-6 ta ishtirokchidan iborat kichik guruhlarga bo'linadi.

Har bir guruh a'zolariga o'zaro bir-birlarini bog'laydigan 5 ta umumiy o'xshash xususiyatlarni yoki hammada har xil bo'lgan 3 ta xususiyatni topish topshirig'i beriladi.

So'ngra guruhlар barcha ishtirokchilarning ismini aytib, topshiriq natijasini taqdim etadilar.

Meni qanchalik bilasiz?

Avvaldan do'st/ dugona bo'lgan ikki o'quvchi doskaga taklif qilinadi. Bir dona stul qo'yiladi va unga doskaga taklif etilgan o'quvchilardan biri o'tiradi. Bir kishi yonida tik holatda qoladi. Qolgan o'quvchilarga bu ikki sinfdoshlari haqida o'zlarini qiziqtirgan savollarni berishlari so'raladi. Faqatgina savollar o'tirgan o'quvchiga qarata beriladi, lekin javobni tik turgan o'quvchi beradi. Savollar yakunlangach, joylar almashinadi va endi tik turgan o'quvchi stulga o'tiradi va do'sti u haqidagi savollarga javob beradi.

Sizga yaxshiliklar tilayman

Barcha o'quvchilar o'rnidan turishadi va doira shakliga kelib, bir-birlarining qo'llaridan tutishadi. O'qituvchi ham bu doiraga qo'shiladi va yonidagi o'quvchining qo'liga qarsak urib, o'z ismini aytadi va biror bir yaxshi tilak aytadi. Boshqa o'quvchilar ham shu shaklda doirani davom ettiradilar. Masalan, Mening ismim Gulchiroy, Sizga baxt tilayman. Mening ismim Shohrux, Sizga omad tilayman....Doira yakunlangach, barcha o'quvchilar qarsak chaladilar va o'z joylariga qaytadilar.

Barcha o'quvchilar uchun teng munosabatlar

Har bir o'quvchi o'zining qadrlanishini his etishi, barcha qatori ijobjiy munosabatda qabul qilinishi va o'qishdagi sa'y-harakatlari adolatli baholanishini his qilishi zarur.

Sinfda "sevimli" yoki "yoqtirilmaydigan" o'quvchilar bo'lishi kerak emas.

Bunda teng imkoniyatlarni ta'minlash har bir o'qituvchining maqsadi bo'lsa-da, amalda bunga erishish qiyin.

Masalan, xalqaro tadqiqotlar qizlarning sinfdagi kompyuterlar va boshqa maxsus uskunalar bilan ishlash imkoniyatlari o'g'il bolalarga qaraganda ancha cheklanganligini ko'rsatadi.

Qobiliyatli qiz bola o'quvchilarning baholari qobiliyatli o'g'il bola o'quvchilarga qaraganda tez-tez pasaytirilgani kuzatilgan.

O'qituvchining e'tiboridan kamroq bahramand bo'ladiganlar orasida uyatchan yoki aksincha, jim o'tirmaydigan o'quvchilar, shuningdek ijtimoiy maqomi past bo'lgan oilalardan kelgan bolalar ham yo'q emas.

Nima uchun bunday bo'ladi?

O'qituvchilar kamdan-kam holatda ongli ravishda o'quvchilarga noto'g'ri munosabatda bo'ladi. Salbiy fikrlarning aksariyati ongsiz ravishda namoyon bo'ladi.

Lekin ko'pchiligidan qobiliyatli, muloqotda yoqimli, mehnatkash o'quvchilarga simpatiya bilan qaraymiz. Bu tushunarli, lekin o'rinni emas.

O'quvchilar ustozidan hammaga teng darajada e'tibor berilishini kutadi. Ko'plab o'qituvchilar sinfdagi barcha o'quvchilarga bir xil topshiriq berib, yordam so'ragan o'quvchilarga ko'maklashishni barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish deb hisoblaydi.

Aslida uyatchan o'quvchilarga ular so'raganidan ko'proq yordam kerak bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchi o'qituvchidan e'tibor kutish huquqiga ega.

Ammo har bir o'quvchining imkoniyatlari har xil bo'lganligi sababli, ular bilan turlicha ishlash kerak.

Darsni turli ko'rinishda olib boring

Ma'lumot rang-barang taqdim etilganda samarali o'rganiladi. O'qitish vositasi sifatida animatsiyalar va turli dars ishlanmalaridan foydalaning. Bu metodikalar o'quvchilarda turli hissiyotlarni uyg'ota olishi kerak.

Masalan, italiyalik o'qituvchi Mariya Montessori bolalarga o'rganayotgan narsalarini ko'rish, teginish, eshitish, hidlash yoki tatib ko'rish imkoniyatini berish qanchalik kuchli ekanligini namoyish etgan.

U sezgi idrokini kuchaytirish va o'qituvchiga hurmat hissi bilan bola diqqatini uzoq vaqt ushlab turishga erishgan.

Muntazam ta'limiylardan foydalaning

Finlyandiya hukumati barcha sinf o'quvchilari darsning har bir soati davomida 15 daqiqa o'yin o'ynashi to'g'risida qaror qabul qilgan. Ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu usulni qo'llab-quvvatlovchi bir nechta tajribalar kuzatilgan.

O'quvchilarni lektorlikka jalb qiling

Buning asosidagi mantiq juda oddiy: odamlar o'zлari va boshqalar uchun tajribalar yaratishni yaxshi ko'radi. Agar o'quvchilar darsga o'zining hissasini qo'shgan bo'lsa, ular dars qanday o'tishini bilishga ko'proq qiziqadi.

Ularni kuldiring

Hech narsa yaxshi hazil kabi e'tiborni qozonmaydi. O'quvchilar hazilni o'rnida ishlatadigan va darsda foydalanadigan o'qituvchilarni tinglashadi.

Fikrlarni aniq va dolzarb qiling

Inson miyasi mavhumlikka dosh berolmaydi. Berayotgan bilimlariningizni aniq va tushunarli qilib yetkazish bilan birga hayotiy misollar va hissiy tafsilotlar bilan o'rgating. Ya'ni, yangi bilimlarni tasavvur qilishlariga sharoit yaratib bering.

G'oyalarni oldindan yozib oling

Taqdimotingizni rejalashtirayotganingizda, qanday bayon qilish haqida oldindan tasavvur qiling va uni yozib mashq qiling.

2.3. Natija kerakmi, darsni motivatsiya berishdan boshlang

O'qituvchi o'quv jarayonini o'quvchilarga motivatsiya berishdan boshlashi kerak. U motivatsiya berishni intrinzin motivatsiyadan boshlashi mumkin. Bu orqali o'quvchilarning diqqat-e'tibori to'g'ridan-to'g'ri o'quv materialini, mavzuni, topshiriqni qabul qilishga yo'naltiriladi.

Agar bunga erishishning hech iloji bo'lmasa, unda ekstrinzin motivatsiyadan foydalanish kerak. Bu orqali o'quvchi muayyan mehnat sohasidagi ko'nikmalarni o'rganishi kerak bo'lsa, unga aynan mana shu mavzu yordam berishi haqida misollar keltiriladi.

O'qituvchi o'tilgan mavzuga doir qiziqarli hikoya yoki latifa aytib bersa, bu jarayonda ham o'quvchida motivatsiya paydo bo'lishi mumkin. Bu o'quvchilarning diqqat-e'tiborini qo'zg'atadi va ma'lum vaqt davomida konsentratsiya kuchayishiga sabab bo'ladi.

Jarayonda, shuningdek, "eshikni oolib beruvchi savollar" muhim rol o'ynaydi. Ular yangi mavzu boshlanishida o'quvchilarning qiziqishini ongli ravishda uyg'otadigan yoki diqqat bilan tinglashga undaydigan savollardir. Ya'ni, bu savollar motivatsiyani dars davomida saqlab qolinishi uchun kerak bo'ladi.

Demotivatorlar

Ba'zi omillar o'quvchilarning motivatsiyasini yo'qotishi mumkin. Motivatsiyaning sustlashishiga emotsiyal (hissiy) faktorlar, ya'ni avvalgi muvaffaqiyatsizliklar bilan bog'liq yuqori xavotir sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari fiziologik omillar, qolaversa, atrof-muhit omillari – sovuq, shovqin, ochlik hissi kabi holatlar ham sabab bo'lishi mumkin.

Lekin inson ortiqcha motivatsiya, ya'ni, imtihon haqida haddan tashqari tashvishlanish, o'quvchini charchatib, past baho olishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'quvchi motivatsiyasini oshirish usullari

Ko'pincha ta'sirli gaplar, kuch beruvchi eslatmalar va sovg'alar berish orqali o'quvchi motivatsiyasini oshirishga harakat qilinadi.

Bu ham yaxshi usul, ammo xatti-harakatlar samaraliroq ekanini tadqiqotlar isbotlangan.

Shaxsiy e'tibor qaratish: o'qituvchi o'quvchining ismini bilishi, har biri bilan birma-bir shug'ullanishi, suhbat qurishi, muvaffaqiyatsiz

o'quvchilarni kamsitmasligi, darsga hamma o'quvchilarni jalb qilishga harakat qilishi.

Darsga tayyorgarlik: reja tuzish, nima qilmoqchi ekani o'zida ishonch bilan ko'rinib turishi, kontentni yaxshi bilish.

Yuqori muvaffaqiyat kutish: o'quvchiga ishonish, undan muvaffaqiyat kutish va buni uning o'ziga ko'rsata olish.

G'aýrat: o'qituvchi o'z ishini sevishi, undan zavqlanishi, yaxshi o'qitishga harakat qilishi.

Adolatli bo'lism: sinfda hammani teng ko'rish va adolatli bo'lism.

Ochiq sinf muhiti: o'quvchilarga past baho qo'yish bilan tahdid qilmaslik, tizimli baholash, sinfda inoqlik va xotirjamlik muhitini yaratish, xushmuomala bo'lism.

Bundan tashqari, darsda diqqatni jalb qilish uchun hazillar va hikoyalardan foydalanish, faqat natijani emas, harakatni ham maqtash, aytgan so'zlari bajarayotgan ishlari bilan uyg'un bo'lismi va boshqalar ham bolaning ichidagi ishtiyoqni uyg'ota oladi.

2.4. Nima eksak, shuni o'ramiz: ijtimoiy-emotsional munosabatlar

O'qituvchi bolaga qanday munosabatda bo'lismi kerak?

O'qituvchi bolaga mashinani boshqarib ketayotgan "ruldag'i haydovchi"day munosabatda bo'lismi maqsadga muvofiq.

Albatta, bu yerda mashinani boshqarish ramziy ma'noda qo'llanildi. Bolaga iloji boricha o'zini-o'zi boshqarish huquqini bering.

Ta'limga berish haqida gap ketganda, ba'zilar faqat to'liq nazorat qilish va boshqarishni tushunadi. Agar bola o'zini nazorat ostida his qilsa, u o'qishga qiziqmay qo'yadi.

Bolalarni o'quv jarayonida boshqarib borish muhim, ammo bolalarga o'zlarining o'quv tajribalarini boshqarish imkoniyatini berish bir xil darajada ta'limga olishdagi muhim jarayondir.

Uyda yoki sinfda bo'lishidan qat'i nazar, bolalar o'zlarining ta'lif tanlovlariada bevosita ishtirok etish imkoniyatini xohlaydilar. Buni tashkil qilishning eng yaxshi usuli – o'quvchilar uchun imkoniyatlarni taqdim etishdir.

Masalan, insho yozish mavzularini tarqatganda o'quvchilarga yozish uchun mavzuni o'zlarini tanlashlariga imkon bering.

Shuningdek, o'quvchilarga o'zlarining sinfdan tashqari ishlarini shaxsan tanlashlariga ruxsat bering. Ular o'z xohishiga ko'ra to'garak va mashg'ulotlarga qatnashsin.

Ota-onalar va o'qituvchilar farzandining o'qish muhiti, faoliyati va uslubi haqida qanchalik ko'p ma'lumotga ega bo'lsa, bola shuncha shijoatli va bilim olishga intiluvchan bo'ladi. Buning uchun ulardan ochiq va samimiy muloqot hamda rag'batlantirish talab etiladi.

O'quvchi darsga kech qolsa, qanday yo'l tutish kerak?

Insonparvarlik pedagogikasi konsepsiysi muallifi, buyuk gruzin o'qituvchisi Shalva Aleksandrovich Amonashvili bir kuni o'z ma'rzasiga yig'ilgan o'qituvchilarga savol berdi:

- Tasavvur qiling, siz dars o'tayotgan paytingiz sinfga 20 daqiqa kechikkan o'quvchi kirib keldi. Siz nima qilardingiz?

O'qituvchilar turli xil variantlarni aytdilar:

- Sinfdan chiq!
- Kundaligingni ber!
- Joyingga o'tir, darsdan keyin gaplashamiz!

Lekin Shalva Aleksandrovich javoblarning hech biridan qoniqmadi. U:

- Bola kech kirsa, men chin dildan: "Assalomu alaykum bolam, kiring, o'tiring, sizsiz darsni boshlay olmadik, sizni kutayotgan edik," – derdim. Bu shartsiz sevgi deyiladi, unga taqlid qilib bo'lmaydi.

Agar ikkinchi kuni kechiksa, men yana ham kuchli muhabbat bilan: "Salom aziz bolajonim, seni rosa kutgan edim, tez kir, o'tir. Sensiz darsni boshlay olmadik", – deyman.

Bilasizmi, agar siz buni uch, to'rt, besh marta takrorlasangiz, bola kechikishni to'xtatadi.

Chunki, u faqat sevgining sof turtkisiga javob beradi. Agar u qayerdadir o'zini sevishlarini his qilsa, u yerga boshqa kechikmaydi.

Shalva Amonashvilining o'zi kambag' al o'quvchi bo'lgan va maktabni oltin medal bilan tugatgan. Uning o'qishga bo'lgan munosabatini gruzin tili o'qituvchisi o'zgartirgan, ya'ni u bolalarga hurmat bilan munosabatda bo'ldi va darsga qiziqtira oldi.

Bolaning shaxsiyati Amonashvili tomonidan ishlab chiqilgan insonparvarlik pedagogikasi konsepsiyasining markazida turgan.

Qanday qilib konfliktli o'quvchilarни bir-biriga do'st qilish kerak?

O'quvchilarning jamoaviy ishlashlari, guruhlarga bo'lib o'qitishning maqsadi — kelajakda turli mehnat jamoalarida birgalikda ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish hisoblanadi.

Ba'zida, turlicha temperamentli bolalar bir-birlari bilan tortishib, sinfda ziddiyatli vaziyatlar vujudga kelishi mumkin. Bunday holatda pedagog o'quvchilarni tezda yarashtirish choralari ko'radi.

Pedagog qanday yo'l tutishi kerak?

- Ziddiyatga borgan bolalarni tezda muzokaraga chaqirish befoyda, to'g'ridan-to'g'ri yarashtiruv taklifi miyadagi hushyorlikni kuchaytirib, tajovuzni qayta keltirib chiqarishi mumkin.
- Shuning uchun vaziyatdagi eng neytral pozitsiyadagi inson sifatida foydali bo'lgan, bajarish juda oddiy bo'lgan amaliyotni qo'llassingiz kerak.
- Ta'sir klassikasi — bu iltimoslar yordamida dushmanlarni do'st qilish qobiliyati.
- Masalan, konfliktli bir tomondan ikkinchi tomonning kitobini olib kelib berishini, manzilini yoki qutini xonaga olib borishda ikkala tomondan tengdan yordam so'rang.

Bunday kichik usullar raqobat yoki yoqtirmaslik dasturini yo'q qilishga yordam beradi.



3-BOB. YAXSHI METODIKA – YAXSHI NATIJA

3.1. Dars o'tish usulini qanday tanlash kerak?

“Metodika” va “texnologiya” ayrim hollarda o‘qituvchilar ularni yaxshi farqlay olmasligi ham uchrab turadi, ammo bu tushunchalar ayrim jihatlari bilan farqlanadi. Jumladan, metodik tizim “Qanday o‘qitish?”, “Nima uchun o‘qitish?”, “Nimaga o‘rgatish?” kabi savollarga javob izlaydi, texnologiya esa, “Qanday tarzda samarali o‘qitishga erishish mumkin?– degan savolni markazga qo‘yadi. Metodika o‘quv jarayonini qanday tarzda tashkil etish lozimligini nazarda tutsa, texnologiya qay yo‘sinda o‘quv jarayonini eng qulay, maqbul tarzda amalga oshirishga diqqat-e’tiborni qaratadi.

Demak, o‘quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etish o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlanadigan metodlarga ham bog‘liq ekan.

Pedagogika metodologiyasi – bu pedagogik bilimlar va uni ishlab chiqarish jarayoni haqidagi ta’limot. Metodologiya lug‘aviy tahlil qilinganda, yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “metodlar nazariyasи”, “mavzuni tadqiq qilish metodlari”, “metodlar va strategiyalar”ni o‘rganadi.

Metodologiya — 1. Tadqiqot metodlari majmuasi. 2. Muayyan fan (soha yo'naliш)da qo'llaniladigan tadqiqot metodlari majmui. 3. Ilmiy bilish va dunyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish haqidagi ta'lilot.

Texnologiya — kerakli natijaga erishish uchun metod va vositalar to'plami; keng ma'noda ilmiy bilimlarni amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llash.

Texnologiya ish metodlarini, uning tartibini, harakatlar ketma-ketligini o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiya — bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijalanishini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmuni. Pedagogik texnologiyaning asosiy mezonlari:

konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik, samaradorlik, qayta aloqa muhim sanaladi.

O'qitish texnologiyasi — o'quv mashg'ulotining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarini oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlikdir.

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etishga doir o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish metodlari yig'indisi tushuniladi.

Ta'lim metodi — o'qitish metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar yordamida faqat o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi.

Interfaol metod — o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish metodlari majmui.

Metodika — qat'iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish bo'lib, biror bir ishni

maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi. "Metodika" tushunchasi turli fanlarni o'qitish bilan ham bog'liqlikda qo'llanilib, ma'lum sohani o'qitish jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalari yig'indisini o'zida ifoda etadi.

1. Ma'lumotlarni tartiblashtirish yoki tarkibiy qismlarga bo'lib chiqishni talab etiladigan mavzularda o'rganilayotgan tushunchalar (mavzular, voqeа va hodisalar) o'rtaсидagi aloqa va o'zaro bog'liqlikni o'rnatish talab etilsa:

- * "Klaster"
- * "T-jadval"
- * "Insert"
- * "Konseptual jadval"
- * "BBB "

2. Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va taqqoslashni talab etadigan mavzularda:

- * "Venn" diagrammasi
- * Rolli o'yinlar
- * Loyihalash
- * Kichik guruhlarda ishslash
- * Aniq vaziyatlar analizi(keys)
- * Metoplan

3. Muammoni aniqlash, tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishni talab qiladigan mavzularda:

- **"Aqliy hujum"
- **"Munozara"
- **"Nima uchun?" sxemasi
- **"Qanday?" diagrammasi
- **"Baliq skeleti" chizmasi
- **"Ishbilarmonlar o'yini" usul va vositalaridan foydalanish mumkin.



O'rganilgan bilimlarni qayta ko'rib chiqish

O'rganilgan bilimlarni qayta ko'rib chiqish juda muhim, aks holda ular unutiladi.

Shuning uchun eslatmalar, konspektlar, qo'llannmalar yoki boshqa xotironomalar kerak; tushunmagan narsalarimizga oydinlik kiritish uchun esa savollar berilishi lozim.

Muayyan harakat mahoratini o'zlashtirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak:

Tushuntirish

O'quvchilar u yoki bu harakat nima uchun amalga oshirilishini tushunishlari kerak. Ular ushbu harakat bilan bog'liq har qanday ma'lumotni bilishlari lozim.

Faoliyat texnologiyasi

O'quvchilar nimani qanday qilish kerakligini aniq tushunishlari lozim. Muayyan vaziyatni yechish (keys) yoki tahlil qilish mavzu mohiyatining tushunilishini osonlashtiradi.

Bu bilimni qabul qilish va vaziyatga moslashish mumkin bo'lgan to'g'ri harakat qilish usulini ko'rishga imkon beradi.

Amaliyot

Amaliyot o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida juda muhim.

Xatolarni tekshirish va to'g'rilash

O'quvchilar bajargan ishining sifati, birinchi navbatda, o'zlari, keyin esa, qoida tariqasida, o'qituvchi tomonidan tekshirilishi va tuzatilishi kerak.

Eslab qolish uchun qaydlar

O'quvchilarga u yoki bu shakldagi qaydlar zarur. Bu eslatmalar, konspektlar, kitob, disk va boshqa ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Qayta ko'rib chiqish

Yangi tajriba unutilmasligi uchun mavjud tajriba qayta ko'rib chiqilishi kerak.

Baholash

O'quvchi va o'qituvchilar muayyan faoliyatni o'zlashtirishga ishonch hosil qilishi uchun olingan bilimlarni real sharoitlarda sinab ko'rishlari kerak.

Savol berish

O'quvchilarga har doim savol berish imkoniyati berilishi kerak.

Xulosa ornida, qayta ko'rib chiqish va amaliyot elementlari biror mahorat o'zlashtirilgunga qadar doimiy ravishda amalga oshiriladi.

Ya'ni, o'rganilgan narsalarning umumiy ko'rinishi xulosa sifatida xotiramizda muhrlanadi.



Darsda doskadan foydalinish qoidalari

- ◆ Doskada ko'rinishi lozim bo'lgan o'lchamga teng nisbatdagi tasvirni qog'ozda tayyorlang;
- ◆ Agar siz bo'sh qog'ozdan foydalanishni xohlasangiz, chizg'ich yordamida, namunalar varag'iga o'xshab, kataklar chizib oling;
- ◆ Murakkab tasvirlarni doimo dars boshlangungaga qadar doskaga chizib qo'ying;
- ◆ Doskadagi barcha yozuvlarni alohida papkaga yoki nazariy darsga tayyorgarlik papkasiga solib qo'ying.



**Doskada
harflar, raqamlar
va chiziqlarning
yozilishi**

- ◆ Matnlarni imkon boricha qisqa yozing;
- ◆ Yozuvlar orasidagi masofaning bir xilligiga rioya qiling;
- ◆ Orfografik xatolarga ahamiyat bering va xatoni o'sha zahoti to'g'riling;
- ◆ Harflarni kamida 4 cm balandlikda yozing va xonaning eng uzoq joyidan o'qilishini tekshiring;
- ◆ Chiziqlarni to'g'ri yozing, ularni qo'lda yozishni mashq qiling.



**Doskada
ranglardan
foydalananish**

- ◆ Asosan oq bo'rni ishlating;
- ◆ Rangli bo'rlarni faqat didaktik nuqtayi nazardan biror narsani ajratish uchun qo'llang;
- ◆ Bir xil narsalarga bir xil rang ishlating va shu qoidaga doim amal qiling.
- ◆ Masalan, sarlavhalarni — qizil rangda, oraliq sahifalarini — zangori, maxsus matn o'rinalarini — yashil, matn va chizmalarni — oq, o'lchamlarini esa yashil rangda belgilang.

Amaliy darslarda o'quvchiga qanday yordamlar zarur?

Amaliy ishdan kelib chiqqan anglash, tushunib yetishlar, yangi fikrlar va yechimlar ongli ravishda va muvaffaqiyatli bajarilgan xatti-harakatlarning ijobiy natijasidir. Amaliy darslarda o'quvchilarga quyidagi yordamlar zarur:

Amaliy darsni boshqarish

O'qituvchi amalga oshirishning ahamiyatini ta'kidlashi va tasavvur darajasidan amaliy ish-harakatlarga asta-sekin o'tishni ta'minlashi kerak.

Ko'rish va idrok qilishning har bir bosqichidan so'ng, amalga oshirish bosqichi tashkil qilinishi lozim.

Amalga oshirishni ta'minlash va tekshirish

Amaliy mashg'ulot davomida ikkilanish yoki noto'g'ri harakatlar harakatlar paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'qituvchi mashg'ulotda iloji boricha amaliyotdagi holatga yaqin tarzda faoliyatni tashkil qilishi kerak, shuningdek, nima qilish kerakligini o'zi ko'rsatib berib, buni o'quvchilarga bajartirib, to'g'ri ish-harakatlarga o'rgatishi kerak.

Amalga oshirishdagi xatolarni oldini olish

O'qituvchi xato qilinganini ko'rishi bilan, o'quvchi e'tiborini xatolarga qaratishi, lekin xatolar qilinishiga yo'l qo'yishi kerak, chunki faqat o'shanda o'quvchi o'z qobiliyatlarini ko'ra oladi. O'ta qo'pol xatolarning sabablari aniqlanishi kerak.

Takrorlash va mashqlar qilish

O'zlashtirilgan bilimlar takrorlash, eslab qolish, mashq qilish, avtomatlashtirish va sinab ko'rish orqali o'quvchilarning bilimlar zaxirasiga mahkam o'rnashib oladi.

O'quv yechimni topishga qaratilgan yordamlar

O'quv harakatining samarali natijaga olib kelishi uchun, 2 ta yo'l mayjud:


- O'qituvchi o'zi yechimni ko'rsatib beradi;
- O'qituvchi topshiriq bajarilishini boshqaradi (jalb etadi).
- Yechimni topishga yordam berish usullari:
- O'quv materialini fikran tushunib yetishni osonlashtirish;
- O'quvchi to'g'ri deb o'ylagan yechimni tekshirib ko'rishiga yo'l qo'yish;
- O'rganish (o'zlashtirish) va ruhiy ishslash (mehnat) usullariga o'rgatish.

- O'quv materialini fikran tushunib yetishini osonlashtirish. O'qituvchi o'quv materialini bo'limlarga bo'lishi va mavhum mavzularga ko'rgazmali tus berishi kerak.
- Yechimni tekshirib ko'rish imkoniyatini berish. O'qituvchi o'quvchiga yechimni tekshirib ko'rish yo'lini topishga turtki berishi kerak.

U o'quvchiga buning uchun zaruriy vaqt va imkoniyatni beradi. O'qituvchi o'quvchiga yechimni agar uning o'zi yechimni topishga astoydil harakat qilgan bo'lsagina berishi mumkin. U o'quvchiga yechimni o'zi topishi uchun fursat va imkoniyat berishi kerak.

O'rganish (o'zlashtirish) va aqliy mehnat usullarini o'rgatish. Anglash, tushunib yetish hollari ko'pincha tartiblash va tizimlashtirish qobiliyatining yakuniy natijasi bo'lganligi tufayli vujudga keladi.

O'qituvchi maxsus matn to'g'ri o'qilishini, uning asosiy mazmunlari tuzilishini, kompleks holatlarni tahlil qilishni , aloqadorlikni aniqlashni, umumiy tasavvurlar paydo bo'lishini, shuningdek sabab-oqibatlarni aniqlashni o'rgatishi kerak bo'ladi.



O'quv harakatining samarali natijaga olib kelishi uchun, 2 ta yo'l mavjud:

- O'qituvchi o'zi yechimni ko'rsatib beradi;
- O'qituvchi topshiriq bajarilishini boshqaradi (jalb etadi).

Yechimni topishga yordam berish usullari:

- O'quv materialini fikran tushunib yetishni osonlashtirish;
- O'quvchi to'g'ri deb o'ylagan yechimni tekshirib ko'rishiga yo'l qo'yish;
- O'rganish (o'zlashtirish) va ruhiy ishslash (mehnat) usullariga o'rgatish.
- O'quv materialini fikran tushunib yetishini osonlashtirish. O'qituvchi o'quv materialini bo'limlarga bo'lishi va mavhum mavzularga ko'rgazmali tus berishi kerak.
- Yechimni tekshirib ko'rish imkoniyatini berish. O'qituvchi o'quvchiga yechimni tekshirib ko'rish yo'lini topishga turki berishi kerak.

U o'quvchiga buning uchun zaruriy vaqt va imkoniyatni beradi. O'qituvchi o'quvchiga yechimni agar uning o'zi yechimni topishga astoydil harakat qilgan bo'lsagina berishi mumkin. U o'quvchiga yechimni o'zi topishi uchun fursat va imkoniyat berishi kerak.

O'rganish (o'zlashtirish) va aqliy mehnat usullarini o'rgatish. Anglash, tushunib yetish hollari ko'pincha tartiblash va tizimlashtirish qobiliyatining yakuniy natijasi bo'lganligi tufayli vujudga keladi.

O'qituvchi maxsus matn to'g'ri o'qilishini, uning asosiy mazmunlari tuzilishini, kompleks holatlarni tahlil qilishni, aloqadorlikni aniqlashni, umumiy tasavvurlar paydo bo'lishini, shuningdek sabab-oqibatlarni aniqlashni o'rgatish kerak bo'ladi.

3.2. Zakovatiga ko'ra o'r ganishni osonlashtirish tavsiyalari

Bolada ustunlik qiluvchi zakovat, intellekt (zehn) turi jahon olimlari tomonidan tadqiq qilib kelinadi. Turli zehnlilik nazariyasiga ko'ra, quyidagi zakovat turlari mayjud:

Nutqiy zakovat - so'zlashuv va yozuvda insonning so'zlardan ta'sirli va oqilona foydalana olish qobiliyati bo'lib, kelajakda jurnalistika, siyosatshunoslik yo'nalishida muvaffaqiyatga erishishlari kutiladi. Bunday bolalar ertak, hikoya, latifa aytishni, o'qishni, so'z o'yinlarini va krossvord yechishni yaxshi ko'rishadi.

Mantiqiy zakovat - sonlardan tezlik bilan foydalanish qobiliyati. Olimlar, matematiklar, kompyuter dasturchilarida shu zehn kuchli rivojlangan bo'ladi. Bunday zehnli bolalar biror narsaning qanday ishlashiga qiziqishadi va uni o'r ganish uchun tinmay savol berishadi, matematika va shaxmat-shashka ustasi bo'lishadi.

Tasviriyliz zakovat - atrofidagi narsalarni xayolida jonlantira olish qobiliyati. Rassom, me'morlik kasb egalari bo'lishlari kutiladi, xayolparast, buzib yasashni yaxshi ko'rishadi.

Jismoniy zakovat - inson o'zini ifoda etayotgan paytda badan harakatlaridan yaxshi foydalana olish qobiliyatidir. Raqqosalar, yengil atletikachilar, aktyorlar va sportchilik kasbini tanlashlari maqsadga muvofiq. Bunday bolalar juda harakatchan bo'lishadi. Yugurishni, sakrashni, kurashishni yaxshi ko'rishadi. Qo'l harakatlari bilan bajariladigan mashg'ulotlarni yaxshi uddalaydilar.

Musiqiy-ritmik zakovat - bunday zehnli shaxslar ovozlarga nisbatan ta'sirchan bo'lishadi. Aksariyati xushovoz bo'lishadi, musiqa asbobini chalishni yaxshi ko'rishadi.

Ijtimoiy zakovat - o'zgalarning ruhiy holati, hissiyotlari, tuyg'ularini anglash qobiliyati. Maslahat berishda va liderlikda ularga teng keladigani

yo'q. O'qituvchi va siyosiy liderlar ushbu zehnga ega bo'lishadi. Klublarda, tashkiliy masalalarda faollar, do'stlari ko'p, boshqalar uchun qayg'uradi.

Ichki zehn – o'zini boshqarish, o'zini bilish qobiliyatidir. Ular mustaqil harakatlanishadi. O'zlari qiziqadigan narsalar xususida ortiqcha gapirishni yoqtirishmaydi. Odatda, yolg'iz harakatlanishni va yolg'iz qolishni yaxshi ko'rishadi. Boshqalar ko'z o'ngida ular odamovi bo'lib ko'rindi. Uzoq vaqt bir joyda o'tirib ishlashni talab qiladigan kasblar va dasturchilik kasbida muvaffaqiyat kutiladi.

Tabiatshunoslik zakovati – tabiiy jarayonlar, hasharotlar, hayvonlar va tabiat hodisalarga nisbatan e'tiborli bo'lish qobiliyati. Toza va yam-yashil muhit ular uchun muhim sanaladi. Tabiatni sevuvchilar toifasiga kirishadi.

Zakovat turiga ko'ra o'yinlar va texnikalarni tanlaganimizda o'qitish samarali bo'lishi kutiladi. Masalan, jismoniy intellekt egasi bo'lgan bola darsda harakatlantiruvchi o'yinlar bo'lmasa qattiq zerikadi va o'zini noto'g'ri tuta boshlaydi. Ichki zakovatli o'quvchi esa faol texnikalarda ham joyidan qimirlashga erinishi mumkin. Bolani ayblashdan tiyilib, uni qo'llab-quvvatlash zarur. Agar bola:

Nutqiy zakovatga ega bo'lsa:

- Qilgan ishi yoki faoliyatiga doir hikoya va she'r yozishi.
- Darsni ma'ruza shaklida aytib berishi.
- Xabar shaklidagi mavzuga aloqador kulgili va qiziqarli xabarlarni yetkazishi.
- Qiziqarli mavzu haqida bahs-munozara o'tkazilishi mumkin.

Mantiqiy zakovati rivojlangan bo'lsa:

- Bolaga bunday bo'lmaganida nima bo'lardi, shu sodir bo'lsa, oqibati qanday bo'lardi shaklidagi ochiq savollarni berish.
- Ilm kishilari singari bosqichma-bosqich ilgarilab, bolaning savollarga javob berishini ta'minlash.

Tasviriy san'at zakovati:

- Mavzuga aloqador qiziqarli afisha, video, slayd tayyorlash.
- Mavzuni chizgan holda anglashga urinish.
- Lego o'yinchoqdan foydalangan holda “yasa-buz” tarzida mavzuni idrok etishga harakat qilish.
- Mavzuni yanada chuqur anglashi uchun uch ko'lamli maketlar, legolar, bloklardan foydalanish.

Jismoniy zakovat rivojlangan bo'lsa:

- “Qirq-yopishtir” usuli orqali faolligini oshirish.
- Shampun ko‘pigi, o'yinchoq xamir, bo‘yoq, qum bilan ishslashga ko‘maklashib, unga yordam berish.
- Mavzu xotirasida muhrlanib qolishini ta'minlash uchun sahna ko‘rinishidan foydalanish.
- Muzeylarga sayohat uyushtirilib, qiziqish doirasini kengaytirishga ko‘mak berish.

Ritmik zakovati rivojlangan bo'lsa:

- Mavzuga aloqador qo'shiq yozish.
- Ritmik shaklda o'qish va tovush chiqarishni amalga oshirish.
- Fon musiqasi bilan birga ishslash.

Ijtimoiy zakovati rivojlangan bo'lsa:

- Guruh bo'lib ishslash, dars tayyorlashni ta'minlash;
- Do'stlari davrasida o'qituvchi rolini olib, mavzuni bayon qilish;
- Suhbat o'tkazish.

Ichki zakovati rivojlangan bo'lsa:

- Bunday bolalarning o'z o'rganish usullarini kashf qilishiga rahbarlik qilishingiz, yo'l ko'rsatishingiz maqsadga muvofiq.

- Shaxsiy mehnat qilish, harakati talablari ota-onan tomonidan tushunilishi, ma'qul ko'riliishi lozim.

Tabiatshunoslik zakovati rivojlangan bo'lsa:

- Sayohatlar uyuştirish.
- Bolaning tabiat bilan yonma-yon bo'lishi, uni qalbdan his qilishini ta'minlash.
- Tabiiy toshlar, barglar, tabiat ne'matlaridan gerbariyalar yig'ib, mavzuga aloqador payda foydalanish mumkin.



Mazkur tavsiyalar zakovat turiga qarab o'rganishni osonlashtirgani singari ulardan bolaning zaif nuqtalarini rivojlantirish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, jismoniy zakovati kuchli bo'lgan bolaning so'zlashuv imkoniyatlarini rivojlantirish uchun yuqorida tavsiya etilgan

darsni ma'ruza shaklida bayon qilib berishni so'rashingiz mumkin. Bola avvaliga qiyalsalisa ham, buni amalda sinab ko'rgani sayin nutqiy saviyasi yanada oshadi.

"O'zlashtirishning 4 bosqichi" Feynman usuli haqida

Fizika fani bo'yicha Nobel mukofoti sovrindori Richard Feynman har qanday mavzuni tezroq va chuqurroq o'rganishga yordam beradigan ta'limgosh olish algoritmini ishlab chiqdi. Bu usul "Feynman usuli" nomini oldi.

Bunda siz o'rganmoqchi bo'lgan mavzu yoki tushunchaning qanday ekanining ahamiyati yo'q. Bu usul o'ta sodda va oddiy bo'lib, bor-yo'g'i to'rt bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich: bolaga o'rgatayotgandek yondashing:

Ko'pchilik insonlar murakkab so'zlar va atamalarni o'zlari ham tushunmagan holda ishlatishadi.

Buning oldini olish uchun toza qog'ozga o'rganmoqchi bo'lgan narsangizni yozing. Bilganlaringizni aqlli do'stingizga emas, balki 8 yoshli bolaga o'rgatayotgandek yoriting.

Ikkinchi bosqich: mavzuni takrorlang:

Bu bosqichda bilimingizdag'i bo'shlisolarni angлаshingiz aniq. Bu orqali siz o'z bilimlaringiz chegarasini kashf qilasiz.

Mana shu nuqtada o'rganish jarayoni boshlanadi. Endi siz muammo qayerdaligini bilasiz: asosiy manbaga qaytib, uni qayta o'rganing. Mavzuni oddiy so'zlarda benuqson tushuntirib bera olguningizgacha takrorlang.

Uchinchi bosqich: mavzu ustida qayta ishlang

Ikkinchi bosqichda bilimlaringiz yetarli darajada boyiganini his qilasiz. Orada mutaxassislargina tushunadigan atamalarni o'tkazib yubormaganingizga ishonch hosil qiling.

To'rtinchi bosqich: Soddalashtiring


Tushunchalaringizni soddalashtiring. Mavzu mohiyati to'liq anglashilmagunicha, tushunchalarni aniqroq ifodalashga harakat qiling. Bundan tashqari, turli muqobil yondashuvlarni ham ko'zdan kechiring.

3.3. Baholash. Kim/nimani va qanday baholaymiz?

Baholash – ta'lif jarayoning ma'lum bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil etishdan iborat jarayondir.

Baholashning maqsadi – o'qitishning asl natijalari bilan kutilganlarining mosligini aniqlashdir. O'quvchilarning o'quv faoliyatini baholashda o'qituvchi o'qitishning tanlangan metod va shakllari bilan mos ravishda baholashning turli metodlarini qo'llaydi.

NEGA BAHOLASH KERAK?



**Nimani
baholash
kerak?**



Nazariy bilimlarni;
Amaliy bilim va ko'nikmalarni;
Xulq- atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Diagnostik (boshlang'ich) baholash shakl jihatidan kirish bo'lib, o'quvchi kompetentligining qay darajada shakllanganligini aniqlash uchun xizmat qiladi. U o'quv yili boshida o'tkaziladi va yil yakunida kutilgan natijalarga o'quvchining erishgan yutug'ini aniqlashga imkon beradi. Diagnostik baholash natijalari tasvir shaklida qayd etilib, umumlashtiriladi va o'qituvchiga ta'lif vazifalari, o'quvchi uchun o'quv masalalarini belgilash orqali o'quv jarayonini takomillashtirish va tuzatishlar kiritish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, boshlang'ich baholash ta'lif jarayoni boshida ta'lif oluvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun o'tkaziladi. Baholash natijalari ta'lif jarayonining mazmuni va metodlari, shakllarini tanlash imkonini beradi.

Formativ (shakllantiruvchi, joriy) baholash o'quvchining materialni o'zlashtirishdagi individual o'zgachalik va yutuqlarini aniqlash, shuningdek o'quvchining kutilgan natijalarga erishmog'i uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shakl jihatdan u ham kirish (o'rganilayotgan mavzuning boshida), ham kundalik (o'quv jarayonida) bo'lishi mumkin. O'qituvchi formativ baholashni o'qitishning o'z vaqtidagi tuzatishi uchun, rejallashtirishga o'zgartishlar kiritish uchun, o'quvchilar (boshlang'ich) baholash (shakllantiruvchi, joriy) baholash (umumlashtiruvchi, jamlovchi) baholash esa bajarilayotgan ishning sifatini yaxshilash uchun qo'llaydilar. O'quvchining qobiliyat darajasi emas, konkret ishi baholanadi.

Summativ (umumlashtiruvchi, jamlovchi) baholash Ta'lif jarayonining ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o'quv yili oxiri, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) ta'lif oluvchining ta'limiylar maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

4-BOB. TAJRIBAGA ASOSLANGAN AMALIYOT- PEDAGOGIK QADRIYAT

4.1. Sinfni boshqarish texnikasi

Turli xarakterdagi o'quvchilarni o'zaro integratsiya qilish murakkab texnikalarni bilishni, katta hajmdagi mahorat va tajribani talab qiladi.

Sinfni boshqarishni osonlashtirish uchun qo'llaniladigan o'ziga xos uslublarda ijro turlicha bo'lishi mumkin, maqsad esa yuzaga keladigan buzg'unchi xatti-harakatlarning oldini olish, sodir bo'lgan holatida esa unga samarali yechim topishni o'z ichiga oladi.

Sinfni boshqarish aslida o'qituvchilar uchun o'qitishning qiyin jihatni bo'lib, bu yerda asosiy e'tibor barcha uchun qulay ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan.

Jismoniy jazo qo'llamang!

Yaqin vaqtgacha jismoniy jazo buzg'unchi xatti-harakatlarni nazorat qilish vositasi sifatida keng qo'llanilgan. Ammo hozirgi kunda bu noqonuniy hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, kaltaklash, qo'rqtish kabi jismoniy jazolar yoki sinfda tik turish kabi qo'llaniladigan tartiblar bolalarda tajovuzkorlikni oshiradi.

1. Darsda intizomsizlik qilgan o'quvchilar oldida hech qachon hayajondan chalkashib ketganingizni ko'rsatmang.
2. O'z nuqtayi nazaringizni qat'iy va ochiq ifoda eting. Hech kimni himoya qilmang.
3. Doim tinch va xotirjam holatda gapiring. O'quvchilaringiz oldida emotsiional bo'lmaning.
4. Yaxshi o'qituvchi va yaxshi o'quvchi munosabatlarini o'rnating.

Sinfda o'qituvchi ustunligi hamkorlik, professionallik va o'quvchi ehtiyojlari qondirilishida ko'rindi, shu asnoda ta'lism oluvchilarning xulq-atvoriga talablar ishlab chiqiladi, natijada samarali munosabatlar o'rnatiladi.

Sinfda o'tirishda, kichik guruuhda ishslashda, materiallardan foydalanishda o'qituvchi (e'tiborsizligi tufayli) hammaga teng munosabatda bo'lmasa—bu o'quvchilar tomonidanadolatsizlik deb qaraladi. Bu esa o'qituvchining o'quvchilar oldida hurmati pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni guruhga qanday bo'lish kerak?

O'quvchilarni jamoalarga ajratishda qur'a tashlash eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Siz bolalarni o'zлари xohlagancha bo'linishlariga ruxsat bersangiz, hamma a'lchilar bilan bir jamoada bo'lishga harakat qiladi va hech kim faol bo'lmaydigan bola bilan hamkorlik qilishni xohlamaydi.

Agar o'qituvchi o'z xohishi bilan o'quvchilarni jamoalarga ajratsa, norozilik kelib chiqishi mumkin. Bu, ayniqsa, shaxsiy munosabatlar juda muhim bo'lgan o'spirinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'quvchilarni kuchlari teng taqsimlangan jamoalarga bo'lish eng oqilona usullardan biri hisoblanadi.

Bunda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- Rollarni taqsimlash;
- Daraja (martaba);
- Do'stlik yoki raqiblik;
- Bilim darajasidagi farqlarga ahamiyat qaratish.

Guruhda ishslash ko'pincha o'quvchilar orasida raqobat muhitini paydo qiladi. Shundan kelib chiqib, bu jarayonni ham o'yin sifatida tashkil etish mumkin.

Ko'pincha o'qituvchilar guruhga bo'lishda yo'l qo'yadigan xato bu sondir.

Guruhg'a bo'lish turlari:

2 kishilik guruh;

4 kishilik guruh;

3 kishilik guruh;

5 kishilik guruh.

O'quvchiga vazifa taqdim etish

Birinchi navbatda sinfda tinchlikni saqlab, barcha o'quvchilar sizga qarashlarini ta'minlang. Ba'zi o'qituvchilar shovqinli muhitda ishlasa, ba'zilari diqqatni jalb qilish uchun chapak chalish yoki baland ovozda gapirish kabi turli usullarni qo'llaydilar.

So'zlarizingiz qisqa, aniq va ijobiy bo'lsin. Ovozingiz qat'iy va ishonchli jaranglashi kerak. Agar sharoit o'rindan turishni talab qilsa, o'quvchilardan ko'rsatmalar tugamaguncha tik turishlarini so'rang. Tugatganingizdan so'ng, topshiriqni qisqacha tushuntiring.

O'quvchilardan demonstratsiya jarayonini yaxshiroq ko'rish uchun tez-tez sizning stolingiz yoniga kelishlarini so'rashingiz yoki taqdimot eng oxirgi partaga ham qulay ko'rinishini oldindan rejalashtirish kerak.

"Qachon hamma ishni boshlaydi?" kabi takroriy va umumiy shikoyatlardan saqlaning.

Umumiy ko'rsatmani bir marta bering, keyin topshiriqqa rioya qilmagan o'quvchilar bilan alohida shug'ullananing.

Ismlarini ayting yoki yonlariga borib ko'z bilan aloqa qiling: "Hurmatli o'quvchi, ishni boshlash vaqtি keldi!"

Ko'rsatma bergenningizda o'zingiz ham ularga rioya qilib, namuna ko'rsatishingiz kerak.

Agar siz o'quvchilardan daftarlarini aniq va tartibli olib borishini so'rasangiz, doskada ham shunday yozing. Agar xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni talab qilsangiz, o'zingiz ham ularni bajaring.

Dars tugamaguncha o'quvchilarga sinfni tark etishga ruxsat bermang, bu xavfli odatga olib keladi. Boshqalardan tezroq ishni tugatganlarga qo'shimcha vazifalar bering.

Topshiriq maqsadini aniqlab olish, topshiriqni bajarish uchun ajratilgan vaqtga amal qilinishi, natija to'liqligi (hajmi) va biror yechim namunasini (yo'lini) ko'rsatilishi kabi mezonlarga amal qiling.

4.2. Bolaga ishonch bildiring

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'qituvchi o'quvchidan muvaffaqiyat kutsa, uning muvaffaqiyat darajasi haqiqatdan ham ortadi.

Agar o'qituvchining noto'g'ri qarashlari kuchli bo'lsa va u o'quvchidan muvaffaqiyat kutmasa, o'qituvchining e'tibori va g'amxo'rligidan mahrum bo'lgan bu bolalar muvaffaqiyatsizlikning qorong'i yo'laklarida adashib qolishadi.

Befarqlik, beparvolik va muvaffaqiyat kutmaslik o'quvchini muntazam ravishda mag'lub bo'lishga ko'niktirib qo'yishi mumkin.

Boladan muvaffaqiyatni haddan ortiq kutish normadan oshib ketsa ham mavjud kuch yo'qoladi. Bolani asossiz maqtash kerak emas, uning kuchli tomonlarini rivojlantirish zarur.

Muvaffaqiyatli bolalar daraxt kavagida bo'lmaydi, ularni kashf etish, sa'y-harakatlarini kuzatish, irodasini qo'llab-quvvatlash, ongiga muhim g'oyalarni singdirish, sarosimaga tushganda ularni to'g'ri yo'lga boshlash kerak.

Ota-onalarning muvaffaqiyat kutishlari ham bolaning muvaffaqiyat darasini oshiradi, muvaffaqiyatli bolalar ustida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, ularning ota-onalari ham ulardan yuqori darajada umidvor bo'lganlar.

1960-yilda psixolog Robert Rozental va maktab direktori Lenore Jeykobson klassikaga aylangan va o'sha paytdan beri hozirgacha ko'p marta takrorlangan ajoyib bir tadqiqot o'tkazadilar.

Ular boshlang'ich sinf o'quvchilariga standart IQ testi topshirishadi. Bolalar test savollariga javob berishadi va ularning natijalari o'zlariga

emas, o'qituvchilarga keyinroq e'lon qilinadi. Tajriba maqsadida ekspertlar yolg'on gapirishdi: ular o'qituvchilarga test oddiy IQ testi emasligi, balki kelgusida intellektualyutuqlarga erishadigan o'quvchilarni aniqlashga qaratilgani aytildi. O'qituvchilarga testdan yuqori natija bilan o'tganlar ro'yxati beriladi. Buni iqtidorli, potensial daholar ro'yxati deb aytishadi. Aslida, potensial daholar tasodify tanlangan.

Tadqiqot natijasi

O'quv yil oxirida alohida iqtidorli deb topilgan o'quvchilar haqiqatda boshqalardan yaxshi natijaga erishdilar. Ularning yutuqlari barcha sohalarda qolganlarga nisbatan sezilarli darajada ilg'or bo'ldi. Keyinchalik bu tadqiqot butun dunyo bo'ylab qayta-qayta o'tkazildi va har safar natija bir xil bo'ldi: o'qituvchilar va ota-onalar alohida ishonadigan bolalar ancha kuchliroq va aqlii bo'lismashdi. Bundan tashqari, tadqiqot boshqa sohalarda ham amalga oshirildi: biznes va harbiy tadqiqotlarda.

Muvaffaqiyatni haddan tashqari kutish salbiy oqibatlarga olib kelganidek, muvaffaqiyatdan umid qilmaslik ham bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Me'yoriy dozada muvaffaqiyat kutish o'z natijasini ko'rsatadi. Kaliforniyadagi Los-Anjeles universitetining professori Neal Halfon 2001-yilda tug'ilgan 6 600 nafar bola o'rtaida so'rovnama o'tkazdi. Farzandlarining kelajagi universitetda deb bilgan oilalar, daromad darajasi qanday bo'lismidan qat'iy nazar bolani shu maqsad sari yo'naltirishda muvaffaqiyat qozonishgan. O'tish imtihonlarida eng past baho olgan bolalardan 57 foizining ota-onasi farzandining universitetga kirishidan umidvor bo'lgan bo'lsa, eng yuqori o'zlashtirgan bolalardan 96 foizining ota-onasi farzandining universitetga kirishidan umidvor bo'lishgan. Barcha tadqiqotlardan bitta xulosa olindi: boshqa insonlarning biz haqimizdagи ishonganlari bizning natijamizga juda kuchli ta'sir qiladi.

M.Sekman va B.Erish "Bolalar qanday muvaffaqiyatga erishadilar?" 50 dan ortiq tadqiqotlar jamlanmasi hamda internet ochiq ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Bolalarning xotirasi kattalarnikidan farq qiladi

9 yoshgacha bolaning xotirasi kattalarnikidan farq qiladi. Bola so'zlarni, fikrlarni va aniq harakatlarni eslab qoladi.

9 yoshgacha bo'lgan boladan har doim mакtabga buterbrod olib ketishini yoki narsalarni o'z joyiga qo'yishini kutish unchalik ham to'g'ri emas.

Bola bu narsalarni takrorlash va ota-onasining ko'rsatmasiga amal qilish orqali o'rganib boradi.

Ammo boladan bularning bariniesda tutishini kutish doim ham samara bermaydi.

Buni tushunmagan ona shunday deydi: "Agar buterbrodni olib ketmasang, och qolasan".

Bola buni tushunmaydi yoki oqibatini angololmaydi.

Yaxshisi, undan shunday so'rash kerak: "Iltimos, buterbrodni sumkangga solib qo'y", yoki "Buni joyiga qo'yib qo'yasanmi?"

Boladan ko'p narsa kutish unda bir tarafdan ota-onalar vaziyatni nazorat qilmasligi, boshqa tomondan kattalarning gapiga kirmagani va ular kutgandek bo'limgani uchun o'zini yomon deb o'ylashiga sabab bo'lishi mumkin.

Ammo bu fikrlar to'g'ri emas. Bola, shunchaki, sizni ko'rsatmalaringiz aqli bo'lgani uchun ham ularni eslab qololmaydi.

Jahli chiqqan ota yoki ona: "Qanday qilib buni unutishing mumkin?" – desa, bola xafa bo'ladi.

Hamma gap shundaki, bola hech narsani unutmeydi. U hamma narsani ham eslab qololmaydi, xolos.

Kimdir nimanidir unutishi mumkin bo'lsa, bu ham ota-ona. Chunki ular to'qqiz yoshgacha bo'lgan boladan nima kutish mumkinligini bilmaydi.

4.3. O'quvchini qanday qilib kitob o'qishga undash mumkin?

Bolalarda o'quvchini qanday qilib kitob o'qishga undash mumkin? Bu uning kelajak hayot yo'lini belgilab berishi hech kimga sir emas. Biz

hammamiz o'quvchilarimiz kitob o'qishni yaxshi ko'rishlarini va kitoblar orqali ilmiy jihatdan izlanishga qiziqishlarini istaymiz. Ushbu maqolada bolalarni ko'p kitob o'qishga undash yo'llari hamda kitobxonlikning foydali jihatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Masalan, siz ustoz sifatida ushbu o'quv yilida o'quvchilaringiz 100ta kitobni 6oy ichida o'qishlarini istayapsiz. Avvalo buni o'z oldingizga maqsad qilib qo'ying hamda shaxsiy namuna ko'rsating. Inson ongi ma'lumotni ikki xil aql bilan qabul qiladi, ya'nı bolada ikki xil aql bor deb tasavvur qilamiz. U ma'lumotni ong usti aqli va ong osti aqli bilan qabul qiladi: sizning doimo kitob olib yurishingiz, kitob o'qishingiz uni befarq qoldirmaydi. Faqatgina shaxsiy namuna ko'rsata olibgina kattalar kichiklarga o'rnak bo'la oladilar.

Kitob o'qish maqsadi bilan o'quvchilarning individual maqsadlarini birgalikda belgilash.

Bu bolalarni o'qishga undashning oddiy va qiziq usuli. Kitob o'qiyotgan bolaga har doim ahamiyat bering va kitob o'qishini rag'batlantirib boring.

Har oy kitoblarning yo'nalishini ajratib ko'rsatish.

Har xil nom va mavzular orqali bolalar bilan qayta aloqa o'rnatish muhim. Bolalar dunyosi, jamiyat, xilma -xillik, mehr-shafqat, sarguzasht va tabiatga g'amxo'rlik kabi ular qiziqadigan va xayollari bilan bog'lanadigan mavzularni tanlab oling. O'qish uchun olti oylik mavzularni hozirdan tanlang.

O'quvchilarga kitoblar ro'yxatidan o'zlariga tanlashlariga ruxsat bering.

O'quvchilar kitob o'qishdan zavqlanishlari uchun kerakli vositalarga ega bo'lishlarini ta'minlash juda muhim. Maktab kutubxonasidan o'quvchilaringizni qiziqtiradigan mavzularni o'z ichiga olgan kitoblarni tавсиya qiling. O'quvchilarga bilishga intiladigan mavzulari haqidagi kitoblarni maktabda ham, uyda ham o'qishlariga sharoit bo'lishida ko'maklashing.

O'quvchilaringizga sevimli mualliflari bilan bog'lana olishlariga ko'maklashing.

Bolalar o'qishni yaxshi ko'radilar va sevimli mualliflari tasvirlangan video suhbatlarni ko'rishlari ularga kitoblar bilan chuqurroq aloqani o'rnatishda ko'maklashadi. Ularga o'z o'qigan kitobi haqida yanada to'liq

ma'lumot olish uchun, mualliflarning filmlarini yoki videoroliklarini ularga taqdim eting.

O'qishdan oldingi va keyingi mashg'ulotlarni joriy etish.

Kitob o'qish darslarini mashg'ulotlar ko'rinishida olib boring. Masalan, biror o'qilgan asar yuzasidan shu asar muallifining kelib chiqishi haqida yoki kitobning mavzusini alohida muhokama qiling. Yoki kelasi kitob nima haqida bo'lishini o'ylab topish, kitob darsini hikoyadek umumlashtirish, kitob qahramonlari kasb-hunarlarini rolli bajarish yoki qahramonlar xarakter xususiyatlarini muhokama qilish kabi mashg'ulotlar o'tkazing.

Kitob o'qish mashg'ulotlari uchun alohida jurnal tuting, bu orqali natijalarni kuzatib boring.

O'quvchilar 100 ta kitobni o'qishdagi yutuqlarini kuzatib borishlari va kitoblar jurnalini yuritish orqali mas'uliyatni his qilishlari mumkin. Bundan tashqari, bu ularni tekshirish uchun ajoyib usul.

O'qish maqsadlariga erishish uchun maxsus sertifikatlar taqdim eting.

O'quvchilar o'z mehnatlari uchun tan olinishni yaxshi ko'radilar. Haftaning eng yaxshi kitobxon o'quvchisini tanlang yoki o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishgan o'quvchilarni mukofotlang. O'quvchilaringizda o'qish muvaffaqiyatini nishonlashga ishonch hosil qildiring, chunki ular yil davomida ushbu sertifikatni olish uchun intilib o'qiydilar.

Sinf xonangizni o'qish haqidagi rag'batlantiruvchi so'zlar bilan to'ldiring.

O'quvchilarni o'qish maqsadiga erishishga rag'batlantiring, ularning ko'zлari tushadigan devorlarga vizual ko'rsatmalarni joylashtiring. Sinf xonasida o'qish shiorini yarating yoki kitob o'qish uchun kreativ plakatlar, xatcho'plar va boshqa narsalar bilan xonani to'ldiring.

Turli xil bolalar bor va ular o'z hayoti, oilasi, jamoalari va madaniyatini aks ettiruvchi kitoblarni o'qishi juda muhimdir.

O'quvchining shaxs sifatida xilma-xilligi va individualligini hisobga oling va bolalarga tenglik, erkinlik,adolat va hur fikrlilik haqidagi mavzularni tanlab, o'qiting.

O'quvchilarga yangi nashrdan chiqqan kitoblarni o'qishni muntazam ravishda tavsiya eting.

O'quvchilar yangi kitoblarni yaxshi ko'radilar. O'qituvchi sifatida siz o'quvchilaringiz uchun turli xil kitoblarni tanlash uchun kitob nashriyotlari bilan shartnomalar tuzishingiz mumkin. Kitob yutib olish lotereyalari kabi tadbirlarni kitob do'konlari yoki boshqa kitob chiqaruvchi firmalar bilan birgalikda tashkillashtirish ham mumkin.

O'qilgan kitobni ko'rib chiqib, tahlil qilish keyingi o'qiladigan kitobni to'g'ri tanlashni osonlashtiradi.

O'quvchilarga kitobni o'qib chiqib bo'lganlaridan so'ng, maxsus varaqalarini tarqating, u yerda ular kitobda o'zlari yoqtirgan qismlari va o'rganganlari haqida mulohaza yuritadilar va u haqida yozadilar. O'quvchilar sharhlari bilan tanishish sizga sinf uchun keyingi kitobini tanlashda yordam beradi. Bundan tashqari, bu o'qish uchun tuzilgan ajoyib strategiya bo'lib qolishi ham mumkin.

Savodxonlikni har kuni jonlantiring.

Tarixiy maxsus kunlarni yoki tarixiy shaxslarni ajratib ko'rsating, savodxonlikni oshiruvchi interaktiv o'yinlaridan foydalaning. O'quvchilaringizni Beruniy, Navoiy, Eynshteyn va boshqalar bilan bog'liq hayotiy voqealar haqida xabardor qiling. Bundan tashqari, yilning har kuni sodir bo'lgan qiziqarli tarixiy voqeaga mos keladigan kitoblarni topib, tavsiya qilishga harakat qiling.

Gap tuzish ustida ishslash.

O'quvchilar uchun so'zlarni tushunishni kuchaytirish va so'z boyligini oshirish uchun maxsus so'z o'yinlarini yarating. Har oyning kitob janri mavzusini chuqurroq o'rganish uchun so'z qidirish, krossvordlar va rang berish varaqlari bilan mavzuga asoslangan oylik faollik usullaridan foydalaning.

O'quvchilaringizni ruhini ko'taring va ularni harakatlantiring.

O'qish payti inson nafaqat yolg'iz bo'lishi, balki uzoq vaqt bir joyda o'tirishi kerak. Biroq bolaning yosh xususiyatini hisobga olib, ular o'yinni

yaxshi ko'rishlarini tabiiy qabul qiling va to'p otish orqali savol berish, yugurish diktanti estafetasi va boshqa kichik tadbirlarni uyshtiring.

Sinf kitoblarni o'qish maqsadiga erishgandan so'ng, bayram qiling!

O'quvchilarga muzqaymoq kechasi, sayohatga olib chiqish kabi mukofot bo'lishini oldindan bildiring va so'zingizni amaliy isbotlang, bu ularning kelasi o'qish mehnatlari uchun motivatsiyani saqlab qoladi.

Kutilayotgan natija:

01	02	03	04
Bolalarning tasavvur kuchi ortadi.	So'z boyligi va til ko'nikmalari rivojlanadi.	Empatiya va hissiy intellektini chuqur his qiladigan bo'lib yetishadilar.	Kognitiv rivojlanish va akademik samaradorlik kuzatiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'qishni sevimli mashg'uloti sifatida qabul qiladigan bolalar ko'pincha fanlar bo'yicha yaxshi natijalarni ko'rsatib, akademik jihatdan boshqalardan ustun bo'lishadi.

Bolalikda ko'p kitob o'qish umrbod ta'lim olish va bilimga chanqoqlikka yo'l ochadi.

Bunday bolalar tanqidiy fikrlaydi va qayerga bormasin, o'zi bilan birga kitoblar sehrini olib yuradigan mehr-shafqatli insonlar bo'lib yetishadi.

O'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini oshirish uchun nima qilish kerak?

O'qib tushunish strategiyalaridan foydalanish mumkin. O'qib tushunish strategiyalaridan namunalar:

- Qiyinchilik qayerda sodir bo'layotganini aniqlang.
- Qiyin jumla yoki parchani mos so'zlar bilan takrorlang.
- Oldingi matnga qarashlarini so'rang.
- Tushunishda paydo bo'lgan qiyinchilikni hal qilishga yordam beradigan ma'lumotni matndan qidirishga yo'naltiring.
- Darsni grafik va semantik organayzerlar orqali tashkillashtiring.

Grafik organayzerlar: xaritalar, tarmoqlar, grafiklar, diagrammalar, ramkalar yoki klaster kabi turli nomlar bilan tanilgan. Grafik organayzerlar o'quvchilarga darsliklar va rasmli kitoblarni o'qish va tushunishga yordam beradi.

Grafik organizatorlardan foydalanishda:

- O'quvchilarga o'qish jarayonida ilmiy va badiiy adabiyot o'rtasidagi matn tuzilishidagi farqlarga e'tibor qaratishlariga yordam bering;
- O'quvchilarga matndan xulosalarini yozishlariga yordam bering;
- Grafik organizatorlarga misol- Venn diagrammasi (ma'lumotlarni solishtirish), Storyboard (matn ichidagi voqealarni tartiblash), Hikoya xaritasi (hikoya strukturasini chizish:badiiy va badiiy bo'lмаган matn) tuzilmalariga ajratish mumkin.

Masalan, badiiy hikoya personajlar, vaziyat, voqealar, muammo, yechimlarni aniqlash, hikoyadagi badiiy bo'lмаган asosiy g'oya va tafsilotlar aniqlanadi.

Fikrlash qobiliyatini oshiruvchi metodlar

Bugungi kommunikatsiya sohasidagi texnologik muvaffaqiyatlar bolalarimizning salbiy axborot va zararli turatkilar ta'siriga tushish ehtimolini oshiradi.

Buning oldini olish uchun o'quvchilarimizga barcha olingan bilimlar asosida sog'lom fikrlashni o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

Bolalarda fikrlash qobiliyati tez muddatda rivojlanmaydi. Mantiqiy fikrlash qobiliyati rivojlanishi uchun miyaga to'qqiz yil kerak bo'ladi. Yaxshisi bolani 9 yoshgacha salbiy holatlardan asrash kerak.

Faqat 14 yoshdagina bolalarda mantiqiy fikrlash, gipotetik holatlarni shakllantirish, mustaqil ravishda fikrlashlarini tartibga solish va boshqalarning qarashlarini qabul qilish qobiliyati shakllanadi.

Quyidagi usullarni e'tiboringizga havola etamiz:

“Kimsasiz orolda”

O'tkazilishi:

Sinf kichik guruhlarga bo'linadi, vaqt belgilanadi, taqdimot va muhokama qilinadi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladigan o'quv topshiriq mazmuni shunday: “Kimsasiz orolga tushib qoldik. Barcha fanlar bo'yicha bilimlar asosida yangi hayot, davlat va jamiyat qurmoqchimiz.

Qani biologlar, ximiklar, fiziklar, maorifchilar, iqtisodchilar, huquqshunoslar o'z rollaringizga kirishing va Orolda insonlar farovon hayot kechirishi uchun sharoitlarni hozirlang.“

“Sabab va oqibat”

Xronologiya va faktlarni chuqur o'rganishni talab qiladigan usul bo'lib, sabab va natijani o'rganish fanning asosiy yondashuvlaridan birini tashkil etadi.

Bu fizik qonuniyatdan kelib chiqqan yondashuv bo'lib, har bir bir sabab natijaga olib keladi.

O'tkazilishi:

O'quvchilar kichik guruhlarda biror bir hodisaning oqibatlarini (ilmiy faktlarga asoslangan holda) sanab chiqadilar. Boshqa bir guruhsda esa hodisaning sabablari sanab chiqiladi va rasmlar, yozuvlar orqali vatmanda fikrlar ifodalanadi.

Guruhslar taqdimotidan so'ng, ma'lumotlar umumlashtirilib, xulosa qilinadi.

Kerakli jihozlar: vatman, rangli marker va qalamlar, rasmlar, yelim.

Sendvich usuli

“Maqtov-tanqid-maqtov” usuli sifatida ham tanilgan sendvich usuli odatda o'quvchilarga konstruktiv fikr bildirish uchun qo'llaniladi.

Bu usul fikr bildirish yoki tanqid qilish uchun kuchli aloqa vositasi hisoblanadi.

“Sendvich” usulidan foydalanib, samarali va oluvchiga yaxshiroq qabul qilishga yordam beradigan tarzda fikr-mulohaza bildirish mumkin.

Qo'llanilishi:

Ijobiy fikr bildirish yoki maqtashdan boshlang. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi va ularning sa'y-harakatlarini qadrлаshingizni ko'rsatishi mumkin.

Siz murojaat qilmoqchi bo'lgan tanqid yoki fikr-mulohazalarni bildiring. O'quvchiga nimani yaxshilashi kerakligini tushunishga yordam berish uchun misollar keltiring.

O'quvchiga o'z mahoratini yoki ish faoliyatini yaxshilashga yordam beradigan ko'proq maqtov yoki konstruktiv fikr-mulohazalarni taklif qilish orqali ijobjiy ohang bilan yakunlang.

Sendvich usulini qo'llash orqali siz o'quvchilarga fikr-mulohazalaringizni muvozanatlari tarzda yetkazishingiz mumkin.

4.4. Pedagogik vaziyatlar va ularning yechimi

1-vaziyat: “Sinfim bilan dars boshlashim juda qiyin. O'quvchilar shovqin qilishadi va o'zlarini bezovta tutishadi, men dars o'tayotgan vaqtda diqqatlarini jamlay olmaydilar. Menga ular hech qachon tinch o'tirmaydigandek tuyuladi.”

Yechim: Darsni tinchlantiruvchi faoliyatlar bilan boshlang. O'quvchilarni o'z joylariga joylashtirish uchun qisqa, e'tibor talab qiladigan tezkor topshiriqlar bering. Sinfni to'g'ri boshqarish haqidagi maqolalarni o'qib boring.

2-vaziyat: “Mening sinfim topshiriqlar bilan yaxshi ishlaydi, lekin amaliy topshiriqlarga kelganda ular umuman bilim olmagandek tuyuladi, kutilgandek harakat qilmaydi.”

Yechim: Amaliy topshiriqlarni sinfni kichik guruhlarga bo'lish orqali tashkil qiling va har bir guruhg'a aniq vazifalar bering. Jarayonni yaxshilab tushuntirib, kerakli materiallarni oldindan tayyorlang. Amaliy mashg'ulotlar paytida har bir o'quvchini faol kuzatib, ularni yo'naltiring.

3-vaziyat: “Darsga kechikkan o‘quvchiga tanbeh berayotganimda, sinfdan qandaydir izoh eshitildi va kechikkan o‘quvchi ovoz chiqarib kulib yubordi. O‘zimni yomon his qildim”

Yechim: Kechikkan o‘quvchi bilan individual suhbat qiling va kechikknlarga sinf oldida tanbeh bermaslikka harakat qiling. Sinfda intizomni saqlash uchun aniq qoidalar belgilang va ularga amal qilinishi kerakligini tushuntiring.

4-vaziyat: “Mening darsimda bir o‘quvchi har doim hammadan oldin topshiriqlarni tugatadi va keyin esa sinfdoshlarini chalg“itib o‘tiradi. Unga qanday chora ko‘rishim kerak?”

Yechim: O‘quvchiga qiyinroq yoki qo‘srimcha topshiriqlar bering, unga sinfdoshlariga doskada ma’lum bir formulalar bilan yordam berishni taklif qiling yoki yangi mavzularni o‘rganish uchun materiallaringizni u bilan bo‘lishing.

5-vaziyat: “Bir o‘quvchim darsda ko‘p muammolar keltirib chiqaradi. U doim e’tibor talab qiladi va boshqalar ustidan hukmronlikka intiladi. Qanchalik harakat qilmay, uni to‘xtata olmayapman. U yetarlicha qobiliyatli, lekin bir necha daqiqadan ortiq diqqatini ushlab turolmaydi. U topshiriqni tugatgach, men boshqa o‘quvchilarga yordam berishimga to‘sinqilik qiladi.”

Yechim: Ushbu o‘quvchini darsning boshida aniq vazifalar bilan band qiling va unga liderlik rolini bering. Unga vaqtini boshqarish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgating.

Muammolar daraxti texnikasi

Murakkab muammolarni hal qilish texnikasi bo‘lib, muammoning ildiz sabablarini bartaraf etishga va samarali yechimlar yo‘lini aniqlashga yordam beradi.

Turli manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi fikr va qarashlarda sezilarli farqlar bo‘lishi tabiiyligini ushbu keys-stadi usulida bilib olish mumkin.

O'tkazilishi:

Asosiy muammoni aniqlang va uni eng katta muammoni daraxtning eng tepe qismiga yozing.

Muammoning asosiy sabablarini keltiring. Ularni asosiy muammodan kelib chiqadigan qirralar sifatida ro'yxatga qo'shing.

Muammoni keltirib chiqaradigan sabab (lar) ni yozing. Har bir sababga nisbatan "Nega bu sodir bo'lmoqda?" deb savol berib ko'ring. Ildiz sabablarini o'rghanish uchun ko'proq qirralarni oching.

Dalillarni o'zaro bog'lang. Turli sabablar va asosiy muammo o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatish uchun bog'lanish nuqtalarini chizing.

"Muammolar daraxti" texnikasining afzalliklari

Aniqroq tushunish: Bu sizga muammoning murakkabligini tasavvur qilish va tushunishga yordam beradi.

Samarali yechimlar: Asl sabablarni aniqlash orqali siz muammoni hal qiladigan asosiy yechimlarga e'tibor qaratishingiz mumkin.

Kollaboratsiya: Bu jamoada aqliy hujum va umumiy tushunishni rag'batlantiradi.

O'quvchining darsga diqqati qancha davom etadi?

Diqqat – bu aqliy kuchni xohish orqali istalgan joyga yo'naltirish qobiliyati bo'lib, diqqatsiz boshqa qobiliyatlar rivojvana olmaydi. Agar biz o'qitishda yuqori natijaviylikka erishmoqchi bo'lsak diqqatning chalg'imasligiga erishishimiz muhim. Diqqat o'smaydi, uni faqat boshqarish mumkin.

Ba'zi psixologlar o'quvchi diqqati 10-15 daqiqa davom etishini ta'kidlaydilar, ammo ularning diqqat darajasi motivatsiya, kayfiyat, qabul qilingan materialning dolzarbligi va boshqa omillarga qarab o'zgarishi tabiiy. O'quvchilarni uzoq vaqt davomida qiziqish va hushyor tutish uchun ko'rsatmalarda aniq taktika mavjudligini ilm-fanda tekshirilgan.

O'rtacha e'tibor

O'quvchilarning "qisqa" e'tibori 10-15 daqiqagacha bo'lishiga oid keng tarqalgan tushunchaga qaramay, uning aksini ko'rsatadigan juda ko'p



dalillar mavjud. 2007-yil Karen Uilson va Jeyms Korn ma'ruba davomiyligi jarayonida talabalarning yozuvlarida pasayib ketishni aniqlashdi.

O'quvchilar diqqat-e'tibori o'rganilganda ma'ruba paytidagi vaqt oraliqlariga tanaffuslarni kiritishgan. Tanaffuslar bilan ham ma'ruzaning 10-18 daqiqasida, keyin esa dars yakuniga qadar har 3-4 daqiqada diqqat yetishmovchilik kuzatilgan. Uilson va Korn o'quvchilarning diqqatini aniq o'lchab bo'lmasligini va ma'ruba paytida ular e'tiborining pasayishi kuzatilishi mumkin bo'lsa-da, o'rtacha diqqat-e'tiborning davomiyligi aniq emasligini isbotlashdi.

Diqqat va faol o'rganish

2010-yilda kimyo yo'nalishining uchta kurslarida talabalardan tugmalarni bosish yordamida ularda diqqat-e'tibor yetishmayotgani to'g'risida xabar berishlarini so'radilar. Har bir kursni alohida professor o'qitishini va har xil uslubda (ma'ruba qilish, namoyish qilish yoki savol berish) tashkil qildilar. Tadqiqtachilar talabalar tomonidan bildirilgan

diqqat yetishmovchiligining o'rtacha uzunligini, shuningdek, e'tibor yetishmovchiliği va har bir professor tomonidan qo'llanilgan turli xil pedagogik usullar o'rtasidagi bog"liqlikni o'lchashdi.

O'quvchilar 1 daqiqa yoki undan kam davom etgan diqqat-e'tiborni ko'rsatish uchun bitta tugmani, 2 dan 3 daqiqagacha bo'lganda boshqa tugmani va 5 daqiqadan yoki undan ko'proq vaqt ni ko'rsatadigan uchinchi tugmani bosdilar. Javoblar kompyuterga yuborildi va bu ma'lumotlar har bir professor tomonidan qo'llaniladigan turli xil o'qitish uslublari vaqt jadvalida aks etdi.

Bu tadqiqotchilarga professorning bir uslubdan ikkinchisiga o'tishi bilan diqqat-e'tiborning sustlashishi tez-tez sodir bo'ladimi (yoki bir xil bo'lib qoldimi) yoki umuman bo'Imaganini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqotchilar uchta qiziqarli holatni aniqladilar.

Birinchidan, e'tiborning 1 minut davomiyligi yoki undan kam bo'lganligi— juda qisqa tanaffuslardan ko'ra ko'p vaqtli tanaffuslarda diqqat uzoqroq ushlab turilgan.

Ikkinchidan, tadqiqotchilar 10-15 daqiqalik diqqat nazariyasining haqiqat emasligini kuzatishgan. Buning o'rniغا, uchta kursda ham ular ma'ruza davrida atigi 30 soniya ichida paydo bo'lgan diqqat-e'tiborning pasayishini kuzatdilar; navbatdagi ma'ruzada bu 4,5-5,5 daqiqada sodir bo'ldi; keyingi ma'ruzada 7 – daqiqadan 9 – minut oralig'ida va keyingi 9 dan 10 minutgacha vaqt oralig'ida kuzatilgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, bu o'sish va susayish uslubi ma'ruza davomida bo'lib o'tdi va ma'ruza davom etar ekan, diqqat yetishmovchiliği tez-tez yuz bergen. Ma'ruza oxiriga kelib, har ikki daqiqada diqqatda susayish yuz bergen.

Uchinchidan, tadqiqotchilar diqqat bilan faol o'rganish yoki ta'lim oluvchilarga yo'naltirilgan pedagogika o'rtasidagi munosabatni topdilar. Eng ko'p ishlatiladigan ikkita faol ta'lim usuli va savollar texnikasini ishlatib diqqat-e'tibor oshganining guvohi bo'lishadi.

Ta'lim usuli qo'llanilgan paytida yoki savol berilgandan keyin diqqat-e'tibor ko'rsatkichi oshgan. Olimlar dars davomida o'quvchilar e'tiborini

jalb qilish va dars davomidagi saqlanuvchi diqqat-e'tiborga faol o'qitish usullari orqali erishish mumkin, degan xulosaga keladilar.

Qo'l telefonini ta'siri

Fransiya 2018-yilda barcha o'quvchilarga (universitet talabalaridan tashqari) mакtabga telefon olib kelishni taqiladi. Maqsad – o'quvchilarning diqqatini darsga qaratish hamda bir-biri bilan ijtimoiy aloqalarni oshirish edi.

Turkiyada maktabga telefon olib kelish taqiqlanmagan, ammo dars paytida undan foydalanish mumkin emas.

Xo'sh, bu qaror qanchalik to'g'ri?

London iqtisodiyot mакtabi Angliyaning 4 ta yirik shahridan 130 000 nafar o'quvchi bilan maktabga telefon olib kelmaslikning o'qishga ta'siri yuzasidan tadqiqot o'tkazdi.

Natijalarga ko'ra, imtihon baholarida o'rtacha 6,4 foiz o'sish kuzatilgan. Jumladan, eng past natija qayd etgan o'quvchilarning baholari 14,2 foizga ortgan.

Taqiqdan eng katta foya ko'rghanlar ham shular bo'lgan. Eng muvaffaqiyatli o'quvchilarning baholari esa taqiqdan keyin ham o'zgarmagan.

Kanadada 2 000 nafar kishi bilan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlardan muntazam foydalanuvchi o'quvchilarning o'rtacha diqqatini jamlash davomiyligi 12 soniyadan 3 soniyaga tushgan.

2018-yilda Rutgers universitetida o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, telefondan foydalangan talabalar yakuniy imtihonda kamida 5 foiz past baho olishgan.

Qo'l telefonidan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin:

- ekspert videolarini tomosha qilish;
- taqdimot seanslarini yozib olish;
- ilmiy tajribalar uchun videotasvirga tushirish;
- kerakli ma'lumotni onlayn resurslar orqali tadqiq qilish.

Biroq, tadqiqotlar ko'rsatishicha, o'quvchilarning ko'pchiligi amalda telefondan o'rganish emas, o'yin-kulgi uchun foydalanadilar.

Ta'lif (o'qitish) lokomotivi

Muvaffaqiyat spirali butun o'quv jarayonini boshqaradigan lokomotivdir.

Boshqa motivatsiyalar to'xtamay ishlaganda ham, bu lokomotivning ishlashidagi muammolar o'quv jarayonining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, lokomotiv teskari yo'nalishda ham tortilishi mumkin va bu noto'g'ri doira hosil qiladi:

Ko'plab o'quvchilar boshqalar ularni yetarli darajada qabul qilmasligi va atrofdan qo'llab-quvvatlash yo'qligi sababli noto'g'ri doiraga tushib qoladilar.

Doimiy muvaffaqiyatsizlikka uchrash natijasida hamma ham qat'iyatni saqlab qola olmaydi.

Shularni hisobga olib, o'qituvchilar o'z ishlarini quyidagicha rejalahtirishlari maqsadga muvofiq:

- o'quvchilar, agar kerak bo'lganda, har doim yordam so'rashlari mumkinligini aniq bilishlari va shunga qarab harakatlanishlari;
- o'quvchilar bajarishlari taklif etilgan vazifalar sodda va amaliy sharoitlarda tez bajariladigan bo'lishi;
- Vazifalarning murakkab qismi iqtidorli o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi.
- o'quvchilar o'qishdagi muvaffaqiyatlari uchun har doim dalda va boshqa qo'shimcha rag'batlantirishlar.

Berilgan topshiriq unchalik to'g'ri bajarilmagan taqdirda ham kichik muvaffaqiyatlar uchun rag'batlantirish o'quvchida ta'lif olishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi.

5-BOB. O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH — MUVAFFAQIYATLI BO'LISHDIR

5.1. O'z-o'zini rivojlantirish va baholash

Ko'plab milliy va xorijiy tadqiqotchilarning fikricha endilikda, ta'lismiz tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlari, o'qitish va baholashning samarasiz usullari, instrumentlaridan voz kechib, innovatsion iqtisodiyot va raqamlashayotgan jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan ta'lismiziga o'tishga majbur bo'ladi. Shunga mos ravishda ta'lismiz olish va berishga yondashuvlar ham o'zgarib, raqamli texnologiyalar, jadallahuv va ta'lismiz ishtirokchilarining transformativ holati bilan bog'liq jarayonlar yuz beradi. Ba'zi maktab va oliy o'quv yurtlari o'quvchilarini, ayrim o'qituvchilaridan ko'ra ko'proq bilimga ega bo'lishi mumkin. Shu bois, o'qituvchilar oddiy bilim beruvchi — translyatorlikdan, o'qituvchi tashkilotchi-fasilitatorlikka o'tishlari hayotiy zaruratdir.

Ayrim o'qituvchilar uchun bunday o'zgarish oson bo'lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, kollaboratsiya, kreativlik va ijodiy fikrlash qobiliyati zarur bo'lganligi sababli, o'quv reja va dasturlari mazmuni o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish ta'lismiz texnologiyalari, o'qitishning samarali metodologiyalari va o'quv-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishning o'zini oqlagan modellarini joriy etishni talab etadi.

20 yil oldin hech kim SMM, internet-marketolog, loyiha menejeri, grafik dizayneri, mobil ilovalar yaratuvchisi kabi kasblarga o'qiyman demas edi, lekin bu kasblar bugungi kunda va yaqin kelajakda eng dolzarb bo'lgan kasblar ro'yxatidan joy olib bo'ldi³.

3 <https://mel.fm/blog/yeekaterina-danilova/3492-chto-takoye-obucheniye-4k-zachem-ono-vashemu-rebenku-i-gde-uchitsya-po-takoy-sisteme>

Maktab o'quvchisida o'qish, o'rganish istagi majburan shakllantirilmaydi, faqat uning o'qituvchisining unga bo'lgan ishonchini his qilganda uyg'onadi. Yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish faqat shaxsiy misol bilan ifodalanadi va o'quvchilar o'qituvchining o'zi ularga o'qitayotgan fanni yaxshi ko'rishini shubhasiz his qilishadi.

Zamonaviy o'qituvchi – bu barcha javoblarni biladigan emas, balki o'ziga doimiy ravishda yangi savollar beradigan, o'z ustida ishlaydigan, muntazam malakasini oshirib boradigan shaxsdir. Uning o'z ustida ishslash, o'zini-o'zi rivojlanirishga intilish uchun bir qancha sabablari bo'lishi mumkin, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratsa bo'ladi:

Ichki sabablar. O'qituvchi o'z malakasi darajasidan qoniqmagan va o'zi o'qitayotgan fanni o'quvchilarga yetkazib berishda mahorat va ko'nikmalar yetishmasligini his qilganida.

Tashqi sabablar. Ko'pincha maktabda o'qituvchidan malaka oshirish sertifikati talab qilinadi, shunda u o'z lavozimini saqlab qolishi yoki lavozimga ko'tarilishi uchun kasbiy rivojlanish istagi hosil bo'ladi.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ko'pincha o'qituvchilar malaka oshirish kurslariga majburan kelishadi, afsuski ularga mustaqil ravishda boradiganlar ko'p emas. Shunday bo'lsa-da, ta'lim iste'molchilari va jamiyatning ta'limdan kutuvlari, talablari kundan-kun oshib borayotgani hamda o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlari individuallashib borishi o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlanish borishga majbur qilmoqda. O'quv jarayonini to'g'ri rejalashtirish, o'quv resurslarini tanlash va samarali qo'llash, erishilgan natijalarni obyektiv baholashni amalga oshirish talab etilmoqda.

Dars rejali. Ular nima uchun kerak?

Nima uchun reja yozish kerak? Chunki dars o'tish uchun eng yaxshi variant har doim tayyor bo'lishi kerak.

Dars rejasini oldindan tayyorlanganingizdan so'ng, siz sinfga kirganda o'zingizga bo'lgan ishonchingiz yuqori bo'ladi.

Dars rejani yozishda hisobga olinadigan jihatlar

Darsning asosiy mazmuni nima?

Agar darsdagi mashg'ulotlar mantiqiy mazmunga ega bo'lsa, unda o'quvchilar sizni va darsni osonroq kuzatib borishlari mumkin.

Qanday qilib ularning qiziqishini uyg'otish mumkin?

Darsni darhol bolalarni jalb qilish bilan boshlang. Ularning e'tiborini jalb qilish uchun ularga rasm, fotosurat yoki obyektni va dars qaysi mavzuga asoslanganligini ko'rsating.

Qanday qilib ularni o'rganishga da'vat qilish mumkin?

Har bir o'quvchi, uning yoshi yoki darajasidan qat'i nazar, u qiyinchilik ostiga olinishi kerak. Agar hech qanday qiyinchilik mavjud bo'lmasa, unda o'rganish bo'lmaydi.

O'quvchilar oldin o'rgangan bilimlarini qanday aniqlash kerak?

O'quvchilarga tekshirishingiz kerakligini aytib, avvalgi bilimlarni ko'rib chiqishingiz mumkin. Bir terminni bitta darsda o'rgatganigizda, bu uni barcha o'quvchilar o'rgangandi degani emas. O'quvchilarga ko'proq amaliyotli vaziyatlarni bering.

Darsning maqsadlari nimalardan iborat?

Har doim o'quvchilar nima uchun mashg'ulotlar, o'yinlar yoki qo'shiqlar kuylash bilan shug'ullanayotganliklari haqida o'ylashlari juda muhim. Rejangizdagagi hamma narsa ma'rifiy bo'lishi kerak.

O'quvchilarning ilmiy so'z boyligini qanday oshirish kerak?

Agar siz qaysi so'zlarga aniq diqqatni jamlasangiz va ularni qanday taqdim etishga oldindan tayyorlasangiz, ularni bolalarga aniq tushuntirib bera olasiz.

Darsni qanday tushuntirish mumkin?

Har bir mashg'ulotni qanday qilib tushuntirmoqchi bo'lishingizni, oldindan hech bo'limganda ruhiy jihatdan tayyorlashingiz kerak. Tushuntiriladigan tushunchalar qisqa, aniq va vizual materiallarni ko'rishga qulay tarzda bo'lishi kerak.

Ularni namoyish qilish orqali tekshirishni unutmang. Shuningdek, qanday qilib doskaga yozishni hal qiling. Siz o'zingizning dars rejangizga o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi uchun eslatma diagrammalar chizishingiz mumkin.

Dars reja uchun qancha tafsilotlar kerak?

Agar siz kitob bilan ishlayotgan bo'lsangiz, unda mavzuning sahifa raqamlarini hisobga oling. Sizning sinfingizni, siz bo'limgan paytda ham kimdir qamrab olishi kerakligini oldindan tasavvur qiling. Ular sizning rejangizni tushuna olishlari va sizning darsingizni o'ta olishlari kerak.

O'zlashtirishni qanday tartibda tekshirish kerak?

Odatdagidek, siz dars bilan tanishishingiz, yangi mavzularni tushuntirishingiz, bolalarga nazorat uchun mashq berishingiz va erkin amaliyot o'tishingiz mumkin.

Oxir-oqibat o'quvchilar natijalarini ko'rib chiqing va bolalarning o'zlaridan nimani o'rganganliklari haqida fikr-mulohazalarini oling.

Dars rejasiga qanday muammolarni kiritish mumkin?

Agar tanlagan metodingiz ish berishiga ishonchingiz komil bo'lmasa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni qanday hal qilish haqida dars oldidan, rejalashtirish bosqichida vaqt ajrating.

Muammolar faoliyat bilan bog'liq yoki vaqt jadvaliga bog'liqmi, o'quvchilar bilan bog'liqmi yoki hatto o'qituvchiga bog'liq ham bo'lishi mumkin.

Oldindan kutilayotgan yechimlar to'g'risida o'ylashni rejalashtirayotganingizda qo'shimcha daqiqalarni ajratib qo'yish sizni mushkul vaziyatdan saqlaydi.

5.2. O'qituvchilar uchun nutq texnikasi

O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq. Yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi ovozining shiradorligi bilan o'quvchilarni darsga jalb eta oladi.

Dars davomida ovoz va nutqdan noto'g'ri foydalanish, tomoqda gapirish esa ovozning bo'g'ilib qolishiga, o'quvchilar diqqatini uzoq davom

etmasligiga olib keladi. Natijada oxirgi soatlarga borib ovozdan foydalanish imkoniyati pasayib, butkul charchab qolish mumkin.

Inson hayotida nafas olishning aralash turidan foydalaniladi. Bunda ko'krak qafasi, diafragma, paylar va boshqa tana a'zolarimiz faol ishlaydi. Nutq jarayonida nafas olish "fonatsion nafas olish" deb ataladi.

Kundalik hayotdagি nutq asosan dialog shaklida bo'ladi. Shuning uchun ham nafas olish ortiqcha qiyinchilik tug'dirmaydi. Dars davomida o'qituvchi juda ko'p gapiradi, yangi mavzuni tushuntiradi, ma'ruza o'qiydi.

Agar o'qituvchi nafas olish texnikasini yaxshi egallamagan bo'lsa, uning tomir urishi tezlashib, bu yuzning qizarib ketishi va nafas qisishiga olib kelishi mumkin. Bu asosan nafasdan noto'g'ri foydalanib, tomoq zo'riqishi oqibatida sodir bo'ladi.

Tovush chiqarilgan havoni hiqildoqdan o'tish paytida ovoz pardalarning tebranishi natijasida vujudga keladi.

Tovush o'zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- chiqarilayotgan havo oqimining tovush tirkishiga bo'lgan bosimi qancha katta bo'lsa, tovush ham shuncha kuchli bo'ladi;
- tovush pardozi – tovushni uzoq masofaga uzatilishi va qattiqligini sozlay olishini bildiradi;
- tovushning ixchamligi va harakatchanligi uning mazmuniga, tinglovchilarga moslab o'zgartira olish qobiliyatini bildiradi;
- diapazon – tovush hajmi bo'lib, uning chegarasi eng yuqori va quyi ohanglar bilan belgilanadi. Diapazonning qisqarishi nutqni bir ohangli (zerikarli) bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Bir ohangda gapirish axborotni idrok qilishni susaytiradi, uyquni keltiradi.
- tembr – tovush rangdorligi, yorqinligi hamda uning yumshoqligi va alohidaligi.

Ritmika, diksiya, chiroyli gapirish, keng lug'at boyligiga ega bo'lish ham g'oyatda muhim bo'lib, bu sizning o'quvchilar va ota-onalar oldida hurmatingizni oshiradi.

Chiroyli gapirish ishonchli, mantiqiy, yaxshi dixsiya va intonatsiya bilan gaplashishni anglatadi.

Yaxshi ovoz, aniq va to'g'ri nutq muvaffaqiyatli muloqotning kalitidir. Chunki ovoz nafaqat ongga, balki suhbatdosh hissiyotlariga ham juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bu siz tomoningizdan aytilgan so'zlarning ma'nosini oshiradigan vosita. Shuning uchun bugungi kunda biznes dunyosida nutqqa katta e'tibor berilmoqda.

Yodingizda bo'lsin, sizning ovozingiz tashqi ko'rinishingiz va odobingiz kabi muhim!

5.3. Raqamli avlodni qanday o'qitamiz?

Qo'lida smartfon bilan tug'ilgan avlod: ular klipli tafakkur egalari sifatida katta avloddan farqli fikrlaydimi?

"Farzandim hali go'dak, lekin smartfonimni qo'liga olib, bemalol undan foydalana oladi, internetga kiradi, unga buni o'rgatmaganmiz" deb hayrat bilan gapirayotgan ota-onalar va bobo-buvilarning so'zlariga ko'p guvoh bo'lamic. Haqiqatdan ham bugungi raqamli avlod avvalgi avlodday emas: ular aqli, ijodkor va ta'sirchan. Zamon texnologik taraqqiyotini hisobga olgan holda va ilmiy izlanishlarga tayanib aytishimiz mumkinki, bugungi avlodning fikrlash tarzi o'zgacha bo'lgan butunlay yangi avloddir. O'zimizdan yosh avlod, albatta bizdan farqli tafakkur egalari va ularning tafakkuri bilan hisoblashmay ilojimiz yo'q.

Masalan, 14 – 16 yashar bo'lgan yoshlar hech bir shubhasiz – video kontent avlodi. Ular videotasvir orqali fikrlaydi, ular video kontent yaratadi, video bilan juda yaxshi ishlaydi, videoni idrok qilish – ularning jonu- dili, ya'ni 16 – 17 yashar yoshlar uchun qiziqarli bo'lgan blog kontentlarni kuzatsangiz, ular butunlay boshqa olam ekanini, uni cheklash emas, ularni tushuna olish kerakligini ko'rasiz. Bizga saviyasiz tuyulgan lavhalar bu o'sha yoshlarga qiziq va bu yerda e'tiborli jihat – ular vizual axborotni aynan video formatida iste'mol qilishga ko'nikib o'sgani.

Yana bir misol, 6 yoshli jiyanim 1- 2 yoshidan faqat videoaxborotni iste'mol qilishga o'rganib qolgan. Hozir u Netflix bilan Youtube'ni ko'radi. Unga buni hech kim o'rgatmagan. O'ylaymanki, sizning oilangizdagi bolalar ham shunaqa, chunki ular boshqa odamlar. Shunday ekan, o'quv yili uchun ko'proq video darsliklar yaratib, zamon bolalariga mos pedagog bo'lishimiz zarur, ular ma'ruzadan zerikadi, harakatlanishga esa erinishi mumkin.

1991-yilda amerikalik olimlar Neyl Xou (Neil Howe) va Vilyam Shtraus (William Strauss) tomonidan ushbu holat o'rganilib, avlodlar nazariyasi yaratildi. Unga ko'ra, har 20-25 yilda insonlarning yangi avlod dunyoga kelar ekan, ya'ni, avlodlar nazariyasi bu:

Yo'qotilgan avlod: 1880-1900-yillarda tug'ilgan.

Buyuk avlod, g'oliblar avlod: 1901-1924-yillarda tug'ilgan.

Jim avlod: 1925-1945-yillarda tug'ilgan.

Baby Boomerlar avlod: demografik portlash davrida 1946-1964-yillarda tug'ilgan.

X avlod, noma'lum avlod: 1965-1982-yillarda tug'ilgan.

Y avlod, milleniallar: 1982-1995-yillarda tug'ilgan.

avlod, zumerlar: 1995-2010-yillarda tug'ilgan.

Alfa avlod: 2010-2025-yillarda tug'ilgan.

Qo'lida smartfon bilan dunyoga kelgan raqamli avlod

Raqamli avlod deb 1995-2010-yillarda tug'ilgan Z avlod va 2010-2025-yillarda tug'ilgan Alfa avlod vakillarini aytishadi. Boisi, ular raqamli texnologiyalar tezkor rivojlanayotgan davrda dunyoga kelgan planshet iPad, VR va 3D reallikni faol qo'llaydigan avloddir.

Raqamli avlodga quyidagi xususiyatlar xos: yosh, butunlay raqamli, ular internet va ijtimoiy media asrida tug'ilgan, eng so'nggi rusumdag'i texnik moslamalar bilan deyarli to'liq ta'minlangan, yuksak intellektual salohiyat, ijodiy tafakkur, yangi reallikka tez moslashuvchanlik tadbirdorlik.

Ba'zida raqamli avlod vakillarini IGen (Internet generation) – internet-avlod deyishadi. Chunki, ular hayotini internet va smartfonsiz tasavvur

qila olishmaydi. Global tarmoqda o'sayotgan Z avlodning yashash makoni bu virtual dunyodir. Ular jonli suhbat o'rniqa tarmoqdagi matnli muloqotni (ko'pincha hech qachon ko'rmagan «do'stlari « bilan ham) afzal ko'rishadi.

X va Y avlod dunyoqarashi asosan kitoblar va televizor ta'sirida shakllangan bo'lsa, raqamli avlodning qarashlarini internet shakllantirib, kelajakda ham bu jarayon davom etadi. Ta'lif olish va tengdoshlari bilan muloqot ham onlayn formatda bo'ladi. Bu bugunning obyektiv haqiqati bo'lib, raqamli avlod uchun internet hamma narsani biladigan nufuzli avtoritetga aylanishga ulgurdi. Raqamli avlodning deyarli har birida bir nechta ijtimoiy tarmoqda o'z akkaunti bor.

Yana bir e'tiborli jihat – raqamli avlodning klipli tafakkur qilish xususiyatidir. Klipli tafakkur bu atrofdagi olamni kichik hajmdagi videoklipler, qisqa metrajli yangiliklar kanali yoki boshqa muqobil ko'rinishda qisqa, rang-barang va yorqin bo'yoqlarda idrok qilishidir. Klipli tafakkur egalari uchun katta hajmdagi ma'lumot va axborotni qabul qilish muayyan qiyinchilik tug'diradi. Turli axborotlarning juda ko'pligi fikrni jamlash va o'zlashtirish jarayonini murakkablashtiradi.

Rivojlangan dizayn-fikrlashga ega inson deyarli raqobatsiz ham har doim hammadan bir yoki ikki qadam oldinda bo'ladi. Dizayn-fikrlash qobiliyatları unga empatiya ko'rsatishga, muammoning mohiyatini ko'rishga va mahsulot yoki xizmatni iste'molchi uchun yanada jozibador qilish yo'llini topishga yordam beradi. Natijada, o'zining sodiq mijozlar bazasini yaratishga qodir bo'lgan shaxs har doim kompaniya uchun eng qimmatli xodim bo'lib qoladi.

5.4. O'r ganing, qo'llang: metodlar, usullar, o'yinlar va texnologiyalar

Qalin va ingichka savollar metodi

Maqsad:

O'quvchilarga matn va ma'lumotlarga ko'ra savollar tuzishni o'rgatish, ular bergen va berilgan savollarning aniqligini anglashga yordam berish. Matnni tushunish uchun savollardan foydalanish.

O'tkazilishi:

1. O'quvchilarga qalin va ingichka savollar orasidagi farqni o'rgating.
Qalin savollar katta rasm va katta tushunchalar bilan ifodalanadi.

Qalin savollarga murakkab va ochiq javoblar taqdim qilinadi.
Ingichka savollar aniq bir tarkib yoki yangi so'zlarni o'rganish bilan bog'liq bo'ladi. Ingichka savollarga javoblar qisqa va yengilroq variantda tuziladi.
2. O'quvchilarni qalin va ingichka savollar tuzishga yo'naltiring.
Namuna keltirib, o'qib bering: "Nima uchun?.." yoki "Agar shunday bo'lsa ..." kabi qalin savollar yoki ingichka savollar: "Qanchalik uzoq?.." va «Qachon?..» kabi.
3. O'quvchilar matn uchun o'zlarini tuzgan "Qalin va ingichka savollar" ni o'qishadi.

Ular o'z savollarini qalinlarini katta yozuvlar bilan yozishlari mumkin. Ingichka savollar uchun kichik harflardan foydalaniladi. Mavzular farqlanmaydi.
4. Katta yoki kichik guruhga bo'lingan holatda qalin va ingichka savollarga javoblar muhokamasi o'tkaziladi.

O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish: Yozma debatlar usuli

Ushbu usul o'quvchilarga tengdoshlari bilan birgalikda hozirgi vaqtda jamoatchilik fikrini to'lqinlantirayotgan mavzularda muloqot qilish imkonini berish maqsadida o'tkaziladi.

Yozma shakldagi bunday dialoglarda sinfdagi barcha o'quvchilar ishtiroki imkonini beradi.

Bu usul o'quvchilarning berilgan mavzu yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish bilan birga, munozara madaniyatini o'rganish, asoslay olish qobiliyatini rivojlantiradi.

O'tkazilish tartibi:

1-bosqich. Mashg'ulot boshlanishidan avval stollarni 4 guruh ikki stolda qarama-qarshi, ammo bir-biriga bevosita yaqin joylashtirish.

2-bosqich. Ta'lim oluvchilarga yozma debatlar o'tkazish uslubiyati haqida tushuntirish:

- debatlar-ikki tomon o'rtasidagi yozma muloqot shakli ekani;
- debatlar ikki o'quvchi yoki o'quvchilar guruhlari o'rtasida o'zaro olib borilishi mumkin;
- ushbu uslub bahsli, mavzularni muhokama qilganda ayniqsa foydaliligi;
- munozara paytida o'quvchilar faqat o'z asosli dalillarini taqdim etadi, qolaversa boshqa tomonning asosli dalillariga javob berishi;
- texnika o'quvchilarning muhokama qilinayotgan muammolariga doir bilimlarni chuqurlashtiradi, munozara madaniyatini o'rgatadi, asoslab berish malakasini oshiradi;
- o'qituvchi qo'lga kiritgan ajoyib material baholash uchun asos bo'lib xizmat qilishi.

3-bosqich. Ishtirokchilarni 3 guruhga bo'lib, guruhlarni stolga o'tkaziladi. Bu mashqda 1-4 guruhlar mavzuni qo'llab-quvvatlashini, 5-8 guruhlar esa qarshi chiqishi kerak. 1-guruh 5-guruh, 2-guruh 6-guruh, 3-guruh 7-guruh, 4-guruh 8-guruh bilan bahs yuritadi. 1-4 guruhlarga qizil,

5-8 guruhlarga qora rangli flomaster tarqatib, debat yuritiladigan jadval bilan tanishtiriladi. Asosiy tamoyillarni eslatib, 1-4 guruhlarga jadvallarni topshirib, mashq boshlanishi uchun o'qituvchi signal beradi.

4-bosqich. Mashq yakunlanganidan so'ng debatlarni birinchi tugatgan guruhlar vakillaridan plakatlarni o'qishni iltimos qilinadi (biron-bir sharhsiz). Agar vaqt qolsa, boshqa guruhlardan ham o'z plakatlarini o'qib berishi mumkin. Masalan:

Mavzu: (O'qituvchi tanlaydi)

Sizning eng kuchli asosli dalillaringiz?__

Javob:

Asosli dalil__

Boshqa tomonning asosli daliliga javob qaytaring?

Javob:

Asosli dalil__

Yakun: __

Akvarium metodi

Akvarium — bu rolli o'yin bo'lib, unda 2-3 kishi qatnashadi, qolganlari esa kuzatuvchi vazifasini bajaradi, bu esa ba'zilarga vaziyatda "yashash", boshqalarga esa vaziyatni tashqaridan tahlil qilish imkonini beradi.

Sinfdan uch o'quvchi ajratib olinib, ularga xona o'rtasidagi stol atrofida o'tirishadi(bu uch nafar o'quvchini akvariumdagi baliqlar deb tasavvur qilamiz). Ulardan mavzu bo'yicha oldindan qo'yilgan muammoni 10 daqiqa atrofida birqalikda muhokama qilishlari so'raladi, qolgan o'quvchilar akvariumdagi baliqlarni kuzatgandek xona o'rtasida topshiriq bajarayotgan uch nafar o'quvchining fikrlarini diqqat bilan eshitishadi va ularning javoblarini har bir kuzatuvchi o'quvchi "to'g'ri"/»noto'g'ri» ga ajratib borishadi. So'ngra javoblar muhokamasi o'tkaziladi va barcha javoblar taqqoslanib, agar akvarium baliqlari rolidagi o'quvchilar yetarli javobni taqdim etmagan bo'lsalar, o'z o'rinalarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi o'quvchilarga ajratib berishadi. Har bir muammo yuzasidan

bildirilgan fikrlar o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi va xulosa qilinadi.

Bosqichlari:

Barcha ishtirokchilar kichik guruhlarga bo'linadi (2-3 kishi).

Kichik guruhlardan birining ishtirokchilari zalning markazidagi stolga ("akvariumda") o'tirishadi va faol ishchi guruh rolini bajarishadi. Qolgan ishtirokchilar (passiv ishchi guruhi) esa kuzatuvchi vazifasini bajaradilar.

Faol ishchi guruhi ishtirokchilari topshiriqni bajarish uchun:

- vaziyat (vazifalar)ni ovoz chiqarib o'qish;
- munozara usuli yordamida guruhda muhokama qilish;
- 3-5 daqiqada umumiy fikrga kelish.

Passiv ishchi guruh ishtirokchilari tadbirning ushbu bosqichida munozara jarayoniga aralashmasdan tinglashi va kuzatishi kerak.

Faol ishchi guruhi a'zolari umumiy fikrni bildirgandan so'ng o'z joylarini egallaydilar va passiv ishchi guruh a'zolari quyidagi masalalarni muhokama qiladilar:

- Akvariumdagilar fikriga qo'shilasizmi?
- Ularning fikri yetarlicha asoslanganmi?
- Siz qaysi dalillarni eng ishonarli deb hisoblaysiz?

Shundan so'ng, boshqa guruh "Akvarium" dan joy oladi. Barcha guruhlar navbat bilan "Akvarium" ga tashrif buyurishi kerak va ularning har birining faoliyati tomoshabinlar tomonidan muhokama qilinishi kerak.

Sinkveyn

Sinkveyn — fransuz tilida "besh qator" ma'nosini bildiruvchi so'z bo'lib, fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metoddir. U o'quvchini kritik fikrlashga undash maqsadida yaratilgan.

Sinkveyn — ma'lumotlarni umumlashtirishga yordam beradigan qofiyasiz she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqeа, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi tilidan turli variantlarda ifodalanadi.

Sinkveyn tuzish murakkab fikrlarni bir necha so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan ko'nikmadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzishda quyidagilarga amal qilish kerak:

1-qator: Mavzu birgina so'z, ot orqali ifodalanadi.

2-qator: Mavzu ikki so'zdan iborat sifat bilan ifodalanadi.

3-qator: Mavzu doirasidagi xatti-harakat uchta so'z orqali ifodalanadi.

Bu so'zlar fe'l yoki ravishdosh bo'lishi lozim.

4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan yaxlit fikr ifodalovchi gap yoziladi.

5-qator: Mavzuni takrorlaydigan sinonim so'z yoziladi.

Masalan:

Ertak

Qiziqarli, sehrli.

Ertak tinglash yoqimli.

Ertaklar - insonlarni yaxshilikka yetaklar!

Cho'pchak, matal.

Rotatsiya metodi

Bu metoddan mustahkamlash darslarida , shuningdek, matn bilan ishslashga ajratilgan mavzularda foydalanish yaxshi samara beradi. Bu metod mashg'ulot mavzusini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi, yozganlarini butun jamoa bo'lib tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi.

O'tkazilishi:

1-dars mavzusi bo'yicha raqamlangan topshiriqlar (masalan, mavzudagi rejalar) plakatlarga yozib doskaga osib qo'yiladi;

2-topshiriqlar soni uchta bo'lsa, o'quvchilar ham uchta kichik guruhlarga ajratiladi va kichik guruhlar raqamlanadi;

3-kichik guruhlar o'zlarining raqamlariga mos topshiriqni va bu topshiriqni bajarishda foydalilanadigan yozma ma'lumotlar paketini oladi;

4-kichik guruuhlar o'zlariga taqdim etilgan materiallarni hamkorlikda o'rganib, topshiriqqa javob yozishadi;

5-javoblar kichik guruhdagi husnixati chiroyli biror o'quvchi tomonidan yoziladi;

6-topshiriqlarga yozilgan javoblar varag'i, ma'lumotlar paketi kichik guruuhlar o'rtasida almashtiriladi va qo'shimcha bilan to'ldiriladi, javoblar takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi;

7-javoblar qaysi kichik guruuhniki ekanligi ajralib turishi uchun ularga har xil rangli flamasterlardan foydalanish tavsiya etiladi;

8-stikerga yozilgan (oddiy qog'ozdan foydalanilgan bo'lsa skotch bilan) javob varaqlari doskada ilingan plakatlarga yopishtirilib, o'qituvchi ishtirokida muhokama qilinadi, umumlashtiriladi va to'g'ri javoblar daftarlarga yozib olinadi;

9-to'g'ri va mukammal javoblar soniga qarab o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Bu metod mashg'ulot mazmunini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruhga tahlil qilib ko'rishi talab qilinadigan darslarda qo'llaniladi. Ta'lim berish jarayonida ijtimoiy-psixologik do'stona muhitni yaratishning pedagogik shart-sharoitlari vujudga keltirishga yordam bera oladi.

"O'rgimchak ini" metodi

Metodni qo'llash:

O'quv mashg'ulotida ushbu metoddan foydalanishda o'quvchi ishtirokchilar uchun bosh kiyim (kepka) va 1 dona qalin kalava ip kerak bo'ladi.

O'quvchilar doskaga chiqariladi va doira shaklida turishadi. Har bir o'quvchiga mavzu yuzasidan o'quvchilar tomonidan oldindan tayyorlangan savollar beriladi (savollar o'qituvchi tomonidan tekshirilgan bo'lishi shart).

Savolni bergan o'quvchi doiradagi boshqa bir o'quvchiga ip koptokni otadi. Ip koptokni ilib olgan o'quvchi savolga javob berishi va o'zi oldindan

tayyorlagan savolini boshqa bir o'quvchiga ip koptok bilan birga uzatishi kerak.

Har bir savol yuzasidan o'quvchilardan ketma-ketlikda javob olinadi. Savol-javob paytida kalava ip o'quvchilar qo'liga o'ralib boriladi.

Agar birinchi berilgan savolga javob berolmasa, unga ip koptok otilmaydi. Javob berolsa, otiladi. U ham savol berib boshqa bolaga otadi va ipning bir chetini qo'lida ushlab qoladi. Endi keyingi savollarga javob berolmasa ham qo'lidagi ipni qo'yib yubormaydi. Shunchaki shapkasini yechib qo'yadi. Shunda to'r buzilib ketmaydi. Fikrlar bildirishda uzoq vaqt to'xtab qolgan yoki javoblari umuman to'xtagan o'quvchi bosh kiyimini yechib, o'yindan chiqarilganiga ishora qilinadi va ip koptok bu o'quvchiga otilmaydi.

Savol-javob oxirida qolgan yagona o'quvchi g'olib hisoblanadi.

O'yin yakunida o'qituvchi har bir kalava ipning o'quvchi qo'lida qolgan soniga qarab ularni baholaydi.

“Olti shlyapa” metodi

Mavjud vaziyatni har tomonlama chuqur o'rganish, munosib yechim topish imkoniyatini beruvchi metod bo'lib, har qanday aqliy ish jarayonida, istalgan fan sohasida va darsning turli bosqichlarda samara bera oladi.

Edvard De Bono tomonidan taklif qilingan bu usulda bir fikrlash turidan ikkinchisiga tahlil asosida o'tiladi hamda kelgusida adashmaslik uchun ma'lum bir ketma-ketlikka rioya qilishni va har bir “fikrlash shlyapasini” navbat bilan “kiyish” tavsiya etiladi.

O'tkazilishi:

Ushbu uslub shaxsiy muammolarni hal qilish uchun mustaqil ravishda ishlatilishi mumkin yoki hamkasblar bilan birgalikda ish masalasiga optimal yechim izlashda ishlatiladi. Texnika odamlar har xil fikrlash turlariga egaligi ko'rsatib beriladi, natijada hamma bir-birining fikriga hurmat bilan qaraydi.

Taklif etilgan usulga ko'ra, har bir “fikrlash shlyapasi” o'z rangiga ega va maxsus fikrlash uslubi bilan ajralib turadi. Siz olti rangdagi bosh kiyimni

olishingiz kerak. Eng asosiysi, barcha ishtirokchilar hozirgi paytda qanday rangni muhokama qilishni ko'rishlari kerak. Har bir rangdagi shlyapaning o'z vazifasi bor:

Oq shlyapa (ma'lumotga diqqatni jalg qilish, faktlar va raqamlar)

Oq shlyapali fikrlash uslubida quyidagi savollarga javob beriladi:

- Hozirgi vaziyat haqida nima bilaman?
- Men bu haqida qanday ma'lumotlarni, fakt va raqamlarni bilaman?
- Bu masalada foydali bo'lishi mumkin bo'lgan statistik ma'lumotlar bormi?
- Muammo haqida to'liq tushunchaga ega bo'lish uchun qanday ma'lumotlarni bilishimiz kerak?

Qizil shlyapa (his-tuyg"ular va inson sezgisiga murojaat qilib muammoni o'rganish)

Qizil shlpayadagi har bir ishtirokchi o'zidan o'zi so'rashi kerak bo'lgan savollar:

- Men nimadan xavotirdaman?
- Menda qanday taxminlar bor?
- Menda qanday his-tuyg"ularni his qilyapman?
- Ushbu vaziyatda boshqa odamlarning his-tuyg"ulari haqida nimani tushunaman?

- Mening sezgim menga nima deydi?

- Mening hozirgi hissiyotim qanday?

Qora shlyapa (tanqid, salbiy oqibatlarga e'tibor qaratish)

Qora shlyapacha fikrlashda quyidagi savollarga javob berish kerak:

- Nima xato bo'lishi mumkin?
- Kelgusida qanday muammolar va qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin?
- Men nimadan qo'rqaman?
- Qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- Nega bu masalaga aralashmaslik kerak?
- Qanday tuzoqlar paydo bo'lishi mumkin?

Sariq shlyapa (ijobiy fikrlash, optimizm, ishonch bilan oldinga yurish)
Sariq fikrlovchi shlyapa kiyilganda, siz quyidagi savollarga javob berish kerak:

- Masalaning qanday ijobiy tomonlari bor?
- Qanday ustunlik va afzalliklarni ajratib ko'rsatishingiz mumkin?
- Qanday istiqbollar mumkin?
- Nega buni amalga oshirish kerak?

Yashil shlyapa (ijod qilish, yangi g'oyalar yaratish)

Tasavvurga erk berish orqali quyidagi savollarga javob beriladi:

- Qanday muqobil variantlarni taklif qila olasiz?
- Bu masala bo'yicha qanday yangi g'oyalar paydo bo'lmoqda?
- Qanday qilib bu ilgari haqiqatga aylantirilmagan?
- Fikrimni kengaytirish uchun bu masala atrofidagi qanday stereotiplarni yo'q qilishim mumkin?
- Qanday noan'anaviy yechim taklif qila olaman?

Ko'k shlyapa (umumlashtirish, muammoni hal qilish)

Oxirgi "fikrlash shlyapasi" butun jarayonni boshqarish va natijalarni umumlashtirishni o'z ichiga oladi. Guruh ishlarida ko'k "fikrlovchi shlyapa" odatda tashkilotchilar, rahbarlar, sinfda o'qituvchilar tomonidan kiyiladi.

Ushbu "fikrlash shlyapasi" odatda ish oxirida qo'llaniladi, lekin ba'zida fikrlashning ma'lum turlariga qaytadan qaytish zarurati paydo bo'ladi. Misol uchun, agar qiziqarli g'oyalar hali ham yetarli emasligi aniqlansa, siz "yashil shlyapa"ning ijodiy fikrlashiga qaytishingiz mumkin.

Ko'k shlyapa bilan siz quyidagi savollarga javob berishingiz kerak:

- Qanday umumlashtirish va xulosalar qilishim mumkin?
- Hozirgi vaziyatni samarali hal qilish uchun qaysi fikrlash uslubidan ko'proq foydalanish kerak?
- Xulosa qilib aytganda, hozir nima qilinishi kerak?
- Harakat rejasi qanday bo'ladi va ularning ketma-ketligi qanday?

“Portfolio” metodi

Portfolio – bu o'quvchining ma'lum bir ta'lim davridagi individual ta'lim natijalarini qayd etish, to'plash va haqiqiy baholash usuli.

Portfolioning asosiy funksiyalari – diagnostika, maqsadni belgilash, motivatsiya, rivojlanishni kuzatish, reyting tuzatish, o'z-o'zini baholash.

“Portfolio” metodining qo'llanilishi:

Har bir ishtirokchi erkin ishlashi uchun qulay sharoit yaratilishi kerak. O'qituvchi bolalarga bitta dars oldin ushbu kunda o'tiladigan mavzu va kerakli materiallarni e'lon qiladi.

Sinfdag'i o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda ularni kichik guruahlarga ajratib oladi va har bir guruh uchun mavzu mazmuni asosida alohida topshiriqlar beradi.

Har bir guruh tegishli topshiriqlar asosida barcha kerakli materiallarni portfolioga jamlaydi. O'quvchilar mustaqil izlanib, materiallarni to'plagan holda darsga tayyor kelishlari lozim.

Darsning yangi mavzu bayoni qismida har bir guruh to'plagan materiallari asosida topshiriqda berilgan vazifaga javoblarni sharhlaydi. Beriladigan mavzu, muammo yoki vaziyatlar aniqlanadi.

□ Kerakli jihozlar:

Kompyuter, A1 formatli qog'oz, qaychi, yelim, gazeta, jurnal, fotoalbum, kitob, doska, rangli markerlar, posterlar, turli formatdagi qog'ozlar, proyektor yoki elektron doska.

Bolani ijodiy fikrlashga o'rgatish yoxud “morfologik quti” usuli

“Morfologik quti” usuli ijodiy fikrlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida shveysariyalik olim Fritz Zvikki tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu metod muhandislikdan tortib iqtisodiyotgacha va ijodiy sohalardagi muammolarni hal qilishda o'zining bebaho qo'llanuvchanligi bilan ajralib turadi. Maktab sharoitida tadbirlarni o'tkazish uchun ham qulay metodologiya hisoblanadi.



Morfologik quti algoritmini amalga oshirish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Muammo yoki g'oyani aniq va ravshan ifodalash. Bu yechim izlash jarayonining poydevoridir.
2. Mumkin bo'lgan yechimlar uchun zarur barcha parametrlarni aniqlab, ularni tavsiflash, ushbu jarayon muammoni ko'p qirrali yondashuv orqali yoritadi.
3. Muammo yoki g'oyani hal etish yo'llarini jamlagan morfologik jadval shaklida tuzilgan "morfologik quti" yaratish.
4. Qutida jamlangan yechimlarni ularning maqsadlarga qay darajada mos kelishini tahlil qilish orqali eng maqbul yechimni aniqlash.
5. Tanlangan eng samarali yechimni hayotga tatbiq etish.

Morfologik quti usuli, shubhasiz, o'ziga xos "sehrli jadval" yaratish orqali, muammolarning eng murakkablarini ham ijodiy yondashuvlar bilan yechishga imkon beradi.

Bu metodologiya yangi g'oyalar va yechimlar izlash jarayonida, cheksiz imkoniyatlarni oshib beruvchi qutidir.

Misol:

Siz 10-12 yoshli bolaning tug'ilgan kunini nishonlash vazifasiga duch keldingiz. Morfologik quti usulidan foydalangan holda quyidagi algoritmni amalga oshiring:

1. G'oya: 10 yoshli bola uchun tug'ilgan kun nishonlash;
 2. Tanlov parametrlarini aniqlaymiz: qayerda nishonlanadi, qanday o'yinlar o'tkaziladi; kim tashkil qiladi, maxsus kostyumlar bo'ladimi...
 3. "Quti" jadvalini yaratamiz va unga barchaga variantlarni yozib chiqamiz (1-jadval)
 4. Tug'ilgan kun sohibiga qaysi variant ma'qul kelishini tahlil qilamiz.
 5. Uni tanlab, amalga oshiramiz.
- Vazifa: olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganamiz
"Morfologik quti" usulidan foydalangan holda yaqin orada o'tkaziladigan tadbirlarning rejasini tuzing.

"Kelishuv va ziddiyat" rolli o'yini

Maqsad o'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikr lash hamda murosaga kelish mahoratini shakllantirish hamda bolalar huquqlari bilan bog'liq muammolarni aniqlash.

O'tkazilishi:

Fikrning to'g'rilingini isbotlash orqali qarama-qarshi tomonni o'ziga og'dirish bosqichi:

O'quvchilarga tasdiqlovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar tarqatiladi. Yozilgan fikrni qabul qilish yoki qabul qilmaslik so'raladi. Fikrni qabul qilganlar bir tomonga, qabul qilmaganlar alohida tomonga ajraladilar va 2 kichik guruh paydo bo'ladi.

Fikrni qabul qilganlar ham, qabul qilmaganlar ham o'z qarashlarining to'g'rilingini isbotlashi va o'z guruhlariga boshqalarni ham jalb qilib, fikrlari

to'g'rilagini isbotlashlari zarur. Har bir tasdiqlangan fikr ustida 5 daqiqa ishlanadi.

Tarqatmali materialdag'i tasdiqlangan fikr quyidagicha bo'lishi mumkin:

- "Bolalar o'z shaxsiy huquqlariga egadirlar", bu haqiqatni kattalar hech qachon qabul qilolmaydilar;
- O'z huquqlarini bilish va uni himoya qilish sharafli ishdir;
- O'z huquqlarimni himoya qilish paytida ba'zan ziddiyatga borishga to'g'ri keladi;
- Huquq doimo javobgarlikni sezishni taqozo qiladi;
- Mas'uliyat haqida kattalar bolalarga eslatib turadi;
- Bolalar huquqlarini faqat kattalar himoya qila oladilar;
- Kattalar huquqlari bolalar huquqlarini cheklaydi.

Tahlil bosqichi, bunda o'yinni o'tkazish vaqtidagi o'z holatini tahlil qilish va quyidagi savollarga javob berish talab qilinadi:

O'yin shartlarini bajarish qiyin bo'ldimi?

Mazkur ishni bajarish vaqtida nimalarni his etdingiz?

Bahs-munozara natijasidan qoniqdingizmi?

Natijaga erishishda sizga nimalar yordam berdi yoki xalal berdi?

Bu bosqich hamkorlikda o'tishi, ko'tarinki ruhda bo'lishi, o'quvchilar charchamasligi va yaxshi natija bilan tugashi zarur.

Bahs-munozaraning natijasi albatta tahlil qilinishi va baholanishi kerak.

Quyidagilar e'tiborga olinishi zarur:

- Guruhlar hamkorlikda bir-birlarining vaziyatlarini tushunib, yangi axborotlar olishiga sharoit yaratilishi;
- O'zaro munosabat vaqtida ziddiyatni yo'q qilishga erishish;
- Qo'yilgan muammoni yechib, o'zaro bir-birlarini tushunishlari;
- Murosaga kelishning kichik guruhlarda (juftlikda) tashkil etilishi.

Ushbu bosqichning vazifasi ikki qarama-qarshi tomon o'rtasidagi u yoki bu fikrni tasdiqlash roziligidiga erishish.

O'quvchilardan biron bir fikrni tanlash taklif etiladi.

Fikrni tasdiqlovchi bir(yoki 2-3) kishi, inkor qiluvchi bir(2-3) kishi tanlab olinadi.

10 daqiqa mobaynida konstruktiv bahs-munozara qilinadi.

Madaniyatli va o'zaro hurmat saqlagan holda murosaga erishish bosqichiga olib chiqiladi.

Umumiy o'xhashlik jadvali yoki KJ (Key Ji) usuli

KJ usuli 1960-yillarda yapon antropologi Jiro Kavakita tomonidan umumiy o'xhashlik diagrammasi sifatida ishlab chiqilgan va zamonaviy yapon menejmentida menejmentni sifatli rejalashtirishning yetti usulidan biriga aylangan.

Bu usulning aqliy hujumdan farqi nofaol o'quvchilarni ham faollashtira oladi.

Key Ji ijodkorlik va muammolarni hal qilish usuli bo'lib, unda g'oyalar kartalarga yoziladi, keyin guruhanadi, tasniflanadi, nomlanadi, ovoz beriladi va tanlanadi, eng dolzarb, tasdiqlanadigan fikrlar jamlanadi.

O'tkazilishi:

1. Asosiy muammoni aniqlash uchun kerakli savolni beriladi. Masalan, "Mahsulotlarimizni sotishdagi asosiy to'siqlar nima?"

2. Barcha guruh a'zolari o'z fikrlarini alohida kartalarga yozadilar.

Tahlil. Barcha tegishli faktlar va ma'lumotlar alohida kartalarga yoziladi va birgalikda yig'iladi.

Fikrlar paydo bo'lishi. "Aqliy hujum" orqali ishtirokchilar g'oyalarni ishlab chiqadilar va ularni alohida kartalarga yozadilar.

3. So'ngra har bir ishtirokchi tasodifiy tarzda kartochkalarini doskaga yoki devorga bir varaq qog'ozga yopishtiradi. Shunda hamma kartochkalar hamma uchun aniq ko'rindi. A'zolar guruhning boshqa a'zolarining yozuvlarini o'qib, o'zlarining yangi g'oyalarni qo'shadilar.

4. Har bir ishtirokchi navbat bilan fikrlarni guruuhlaydi va tasniflaydi, boshqalari esa kuzatadi. O'xshash fikrlar to'planadi va bir joyga joylashtiriladi. Jarayonning ushbu bosqichi muhokama qilinmasdan amalga oshirilishi juda muhimdir.

5. Fikrlar guruuhlanganida, har bir ishtirokchidan guruhning ma'nosini aks ettiruvchi nom qo'yishi so'raladi. Qisqa nom yozish va uni kartalar guruhining tepasiga joylashtirish kerak.

6. Agar nomlari o'xshash guruuhlar ko'p bo'lsa, ularni qayta nomlash kerak. Ishtirokchilar o'zлari olgan sxemalarni, har qanday bahsli kartalarni muhokama qilishlari mumkin.

7. Eng kuchli guruuhlar uchun ovoz berish. Demokratik tarzda har bir ishtirokchi eng kuchli guruuhlar haqida fikr almashadi.

Ovoz berish tartibi

1. Har bir ishtirokchiga eng yaxshi g'oyalalar yoki guruhlarni joylashtirish uchun 3 dan 9 gacha ovoz (stiker yulduzlar) bering.

2. Har bir ishtirokchiga 100 foiz ovoz berishga ruxsat bering.

3. Ishtirokchilardan guruuhlar ichidagi eng muhim guruuhlar yoki g'oyalarni saralashini so'rang.

4. Ovoz berishdan so'ng, ishtirokchilar "ovozlar" yozilgan barcha kartochkalarni to'playdilar va doskaga qo'yadilar. Eng ko'p ovoz to'plagan g'oyalalar eng yuqori qismida joylashadi.

Ishtirokchilar natijadagi chiziqlar ular uchun nimani anglatishini ifodalashga harakat qiladilar. Muammoni hal qilish g'oyalari ko'pincha uning tuzilishini tushuntirishda paydo bo'ladi. Jamoa bu ishning eng muhim natijalarini batafsil va chuqur muhokama qiladi.

Bu usul eng ko'p gapiradigan ishtirokchilarning guruh qarorlariga ta'sirini kamaytiradi.

Galereya usuli

Bu metodda ishtirokchilar g'oyalarni san'at galereyasidagi kabi harakatga keltiradi.

Maqsad o'quvchilarni erkin fikrlashga va jamoaviy ishlashga o'rgatish, ularning ijodiy qobiliyatlarini va insoniy fazilatlarini kengaytirish.

O'tkazilishi:

O'quvchilar 5-7 kishidan iborat bo'lgan kichik guruahlarga ajratiladi. Katta harflar bilan muammo yozilgan qog'oz varaqli flip-jadvallar xonaning turli joylariga joylashtiriladi. Muammo mazmunini tushunish uchun ishtirokchilar uni muhokama qilishlari kerak.

Javoblar taqdimot qilinishidan avval yozma bayon etilishi kerak. Guruh a'zolari g'oyalarni qog'ozga jimgina yozadilar. Yozuvlar katta, tushunarli va ixcham bo'lishi kerak. Shunda ishtirokchilar so'z mazmunini osongina o'qishlari mumkin.

20-30 daqiqlik ishdan so'ng, tanaffus qilinadi va ishtirokchilarga boshqa flip-jadvallardagi g'oyalarni o'qish va o'z yozuvlarini tuzish uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

Ishtirokchilar o'z jadvallariga qaytadilar va g'oyalarni ishlab chiqishda, birgalikda fikrlashda davom etadilar. O'quvchilar navbat bilan o'zları tayyorlagan ma'lumotni badiiy, musiqiy, she'riy tarzda taqdim etishlari ham mumkin.

Fikrlar tugab qolganda, 3- va 4 -bosqichlarni takrorlash kerak.

Fikr yaratish jarayoni tugagandan so'ng, barcha g'oyalalar birlashtiriladi, saralanadi va tasniflanadi.

Guruh g'oyalarni tekshiradi va keyinchalik ko'rib chiqishga yoki amalgaga oshirishga loyiq bo'lganlari tanlanadi.

Galereya uslubining o'ziga xos xususiyati shundaki, guruh a'zolari tanaffus paytida harakatlanish huquqiga ega.

"Ajurli arra" texnologiyasi

Ajur fransuzcha "ajour" so'zidan olingan, "bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan, ikki tomoni ochiq" degan ma'noni anglatadi.

Ushbu mashg'ulot o'quvchini aniq bir mavzu rejasi yuzasidan tushuncha hosil qilishga o'rgatadi.

Texnikaning maqsadi o'quvchini fikrlashga, fikrlarini jamlab, ulardan tushuncha hosil qilishga, mavzuga umumiy xulosa berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatishdir.

Bu o'quvchilarni mavzuni mustaqil o'zlashtirishlariga, kommunikativlik, axborot bilan ishslash kompetensiyalarini rivojlantirishga hamda guruh bilan ishslashga o'rgatadi.

Qo'llanilishi:

Seminar, amaliy mashg'ulotlarda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkaziladi.

Metodni qo'llashda guruh a'zolari bir necha marotaba joylarini o'zgartirgan holda topshiriqlarni bajarishlari inobatga olinishi lozim.

Ushbu metoddan yuqori sinf darslarda o'tilgan mavzuni so'rash bosqichi, yangi mavzuni mustahkamlash bosqichi, takrorlash va mustahkamlash bosqichlarida foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinflarda esa hajmi katta bo'lgan materialni o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq.

O'tkazilishi:

- o'quvchilardan 4-5 kishidan iborat kichik guruhlар tashkil etiladi;
- o'quvchilarga beriladigan topshiriq va ularni bajarishda foydalaniладиган matnli materiallar bir necha asosiy qismlar (masalan, reja asosida bir nechta mavzuchalar tayyorlash ham mumkin) ga qirqiladi;
- mavzuchalar va ularga doir matnli materiallar konverti kichik guruhlarning har bir a'zosiga tarqatiladi;
- tashkil etilgan kichik guruh a'zolari matnli materiallardan foydalaniб topshiriqni bajarishga kirishadilar;
- kichik guruhlarning yaxshi o'zlashtiruvchi lider a'zolaridan ekspert guruhi tashkil etiladi;
- ekspert guruhi a'zolari qo'llaridagi topshiriqlarni hamkorlikda muhokama qilib, boshqalarga o'rgatish rejasini tuzadilar;
- ekspertlar o'zlarining dastlabki kichik guruhlariga qaytib, o'rganganlarini boshqa sheriklariga ham o'rgatishadi.

6. ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Jon Grey., “Children are from heaven”, Xarper. -2000.
2. Jef Petti., “Teaching today”, – Buyuk Britaniya., Nelson Torns., -2014.
3. Larisa Morkovkina., “Soft skills”, LitRes: Samizdat. – 2024.
4. K.Xofmani seminarlari. Berlin
5. Shaymo Chekiji., “Darslar oramizni buzolmaydi”, Misbax. – 2023.
6. B.Yu.Xodiyev, L.V.Golish, D.P.Xashimova “Sposoby i sredstva organizatsii samostoyatelnoy uchebnoy deyatelnosti”, Tashkent: TGEU.
7. L.V.Golish, D.Fayzullayeva “Pedagogik texnologiya”.

7. SAYTLAR

1. [www.weareteachers/com](http://www.weareteachers.com)
2. www.edsys.in/teaching-methods/
3. Schule in Deutschland verstehen (russische Sprachfassung, 2. Auflage) (yumpu.com)